Shuningdek, pigmentlarning fotoyorituvchanlik darajasi va elektr o‘tkazuvchanligi maxsus yarim o‘tkazgichli qurilmalarda tajribadan o‘tkazildi. Bu bosqichda ishlatilgan texnologiyalar fotovoltaik qatlamlar hosil qilish va ularni tayyor substratlarga qoplash jarayonlarini o‘z ichiga oldi.

Eksperiment natijalari bo‘yicha eng yuqori samaradorlik ZnPc pigmenti asosida olingan quyosh elementi namunasida qayd etildi. Aynan shu pigment quyosh spektrining muhim sohalarini yutish xususiyatiga ega bo‘lib, elektr tokini maksimal uzatishga imkon berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metall tutgan ftalotsianin pigmentlari quyosh elementlarida yuqori samarali fotoyutiluvchilar sifatida ishlatilishi mumkin. Mis ftalotsianin (CuPc) 670 nm atrofida maksimal yutilish ko‘rsatgan va yaxshi barqarorlikni namoyon etgan.


ZnPc esa eng yaxshi fotoyutilish xossasiga ega bo‘lib, organik quyosh elementlarining samaradorligini 6.2% gacha etkazgan holda ishlatilgan. NiPc esa

ISSN 3030-3907

o‘rtacha fototok hosil qilgan bo‘lsa-da, ekologik xavfsizligi va sintez qulayligi bilan ajralib turdi.

FTIR va XRD tahlillari pigmentlarning to‘g‘ri shakllangan kristallik strukturasini ko‘rsatdi, bu esa ularning elektr xossalariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. SEM tasvirlarida esa nanozarracha o‘lchamdagi strukturalar aniqlandi, bu esa yuzaning faol maydonini oshirgan.

Eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, metall ionining tabiatiga qarab pigmentning elektr xossalari, yutilish spektri va samaradorligi o‘zgaradi. Bu esa kelajakda moslashtirilgan fotovoltaik tizimlar uchun pigmentlarni tanlashda muhim hisoblanadi.



1-rasm. Ftalotsianinlarning umumiy strukturasi.

1-Jadval.

Metall-ftalotsianin pigmentlarining quyosh energiyasi tizimlaridagi funksiyalari va afzalliklari

Metall-ftalotsianin turi	Fotosensibilizatorlik roli	Quyosh nurlari spektridagi yutilish	Afzalliklari	Qo‘llanilish sohasi
Mis-ftalotsianin (CuPc)	Asosiy yorug‘lik yutuvchi qatlam	600–800 nm (qizil va infraqizil spektr)	Yuqori barqarorlik, keng diapazonli yutilish	Organik quyosh elementlari (OPV), DSSC
Kobalt-ftalotsianin (CoPc)	Elektron transferni tezlashtiruvchi komponent	550–700 nm	Elektron konduktivlik yaxshi, samaradorlikni oshiradi	DSSC, sensorlar

ISSN 3030-3907

Metall-ftalotsianin turi	Fotosensibilizatorlik roli	Quyosh nurlari spektridagi yutilish	Afzalliklari	Qo‘llanilish sohasi
Nikel-ftalotsianin (NiPc)	Yordamchi absorber, rekombinatsiyani kamaytiradi	500–650 nm	Termal barqarorlik, kombinatsiyalangan tizimlarda qo‘llaniladi	Tandem quyosh elementlari, fotokatalitik tizimlar

XULOSA

Metall tutgan ftalotsianin pigmentlari organik quyosh elementlarining muhim komponentlari sifatida e’tiborga loyiq. Ayniqsa, ularning yuqori yorug‘lik yutilish qobiliyati, ekologik xavfsizligi va kimyoviy barqarorligi ularni ideal fotovoltaik materiallarga aylantiradi.

Maqolada taqdim etilgan eksperimental tahlillar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, CuPc, ZnPc va NiPc pigmentlari quyosh elementlari uchun istiqbolli materiallardir. Ayniqsa, ZnPc eng yuqori fotoyutilish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, samaradorlik jihatidan etakchilik qiladi.

Kelgusida ushbu pigmentlar asosida heterostrukturalar va nanoaralashmalar ishlab chiqish orqali fotovoltaik tizimlarning samaradorligi yanada oshirilishi mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali ularning sanoatga joriy etilishi tezlashadi.

Tadqiqotlar shuni anglatadiki, ftalotsianin pigmentlari asosida ekologik toza, arzon va samarali quyosh batareyalarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa energiya mustaqilligi va yashil texnologiyalarga o‘tish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Aliev, R. M., & Yunusova, D. R. (2019). “Metall kompleksli pigmentlar tarkibi va tuzilmasi”. *Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi*, 4(76), 41–46.

2. Bains, M. S., et al. (2017). “Environmentally Friendly Synthesis of Pigments”. *Green Chemistry Letters and Reviews*, 10(2), 104–115.

3. Brown, D. M. (2016). “Phthalocyanine-based Materials for Electronics and Photonics”. *Materials Chemistry and Physics*, 173, 84–92.

4. Dilmurod Nabiev va Xayit Turaev, International Journal of Engineering Trends and Technology, 2022.

ISSN 3030-3907

5. Dotsenko, V. A., & Akhmedzhanov, R. A. (2005). *Organicheskiye krasiteli i pigmenty*. Moskva: Khimiya.

6. Ergashev, B., & Soliyev, K. (2022). “Tereftal kislotasi hosilalaridan foydalanish imkoniyatlari”. *TATU Ilmiy Texnik Jurnali*, 1, 59–63.

7. F. Cong va boshqalar, Asian Journal of Chemistry, 2014

8. Frank, N. (2018). *Modern Organic Pigment Technology*. Wiley-VCH.

9. Gao, Y., & Liu, Y. (2018). “Advances in Metal-Organic Pigment Design”. *Advanced Functional Materials*, 28(32), 1801035.

10. Grigoryan, S. R. (2013). “Synthesis of calcium and nickel phthalocyanines”. *Chemistry of Heterocyclic Compounds*, 49(9), 1338–1342.

ISSN 3030-3907

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANISHIDA ERTAKLARNING O‘RNI

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
Tel:+99893-949-49-99
e.mail: shaxnozaxojimirzayeva@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy, milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish extiyoji, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirish, tafakkurni rivojlantirish.

Abstract. Today, one of the most important tasks of preschool education organizations are to educations is to educate preschool children with the rich national, cultural and historical heritage and spiritual and moral values of the people.

Keywords: Patriotism, formation of the need for education in preschool children, desire to learn, development of thinking.

Аннотация. На сегодняшний день, воспитание детей дошкольного возраста в свете богатого национального, культурноисторического наследия и духовно-нравственных аспектов является одной из актуальных задач, стоящих перед дошкольными образовательными учреждениями.

Ключевые слова: Патриотизм, потребность в получении знаний у дошкольников, формирование склонностей к обучению, развитие мышления.

Kirish.

Bolalik - bu shaxsiyatning asosiy tamoyillari va kelajak xarakterining poydevori qo‘yilgan inson hayotining ayni davri. Bola - ijtimoiy o‘zaro ta’sir obyekti sifatida, ko‘rgan, eshitgan va his qilgan hamma narsani o‘zlashtiradi. Uning uchun uning atrofidagi dunyo qiziqarli, ta’sirli va yangi narsalarga to‘la bo‘lmog‘i lozim. Bolaning keyingi rivojlanishi bolaning ijtimoiylashuv davri qanchalik malakali tarzda qurilganiga bog‘liq. Maktabgacha yosh - bu ertak yoshi. Bu yoshda bola ajoyib, g‘ayrioddiy, ajoyib hamma narsaga kuchli intilishni namoyon qiladi. Ertak har bir bolajonlarning to‘liq rivojlanishining eng maqbul vositalaridan biridir. To‘g‘ri tanlangan ertak bolaning hissiy holatiga ijobiy ta’sir qiladi, uning xatti-harakatlarini to‘g‘rilaydi va yaxshilaydi, shuningdek, bolaning o‘zidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ertak bolalar hayotida juda muhim o‘rin tutadi: uning yordami bilan bolalar juda erta gapira

ISSN 3030-3907

boshlaydilar va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar, shuningdek, u muloqot va xatti-harakatlar asoslarini shakllantirishda eng yaxshi yordamchidir.

Bolalar ertaklardan juda ko‘p bilim oladilar: vaqt va makon haqidagi dastlabki bilimlar; inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqida; obyektiv dunyo bilan munosabat; hamda ertaklar bolaga yaxshilik va yomonlikni ko‘rish imkonini beradi.

Ertak o‘qish bolaning so‘z boyligini kengaytiradi, nutqining rivojlanishiga yordam beradi. Ertak tinglab, bola xalq og‘zaki ijodi bilan tanishadi, maqollarni, matallarni eslaydi. Bola uchun ertak shunchaki o‘ylab topilgan voqealar, fantastika emas, bu o‘ziga xos voqelik, tuyg‘ular olamidir. Ertak bola uchun oddiy hayot haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Bolalar ertaklarni tinglab, qahramonlar hayotida yashaydilar, qahramonlarga chuqur hamdard bo‘ladilar, ularga yordam berish va himoya qilish uchun ichki tuyg‘ular shakllanadi.

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va qimmatli janrlaridan biri hisoblanadi. Ular xalqning ma’naviy merosi, hayotiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan badiiy asarlardir. Ertaklar inson bolaligidan boshlab unga ezgulik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdiradi. Shu sababli, ertaklar nafaqat ko‘ngilochar janr, balki muhim ta’limiy va tarbiyaviy vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarining tabiati va ularning bolalar ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbek xalq ertaklari mazmuni jihatidan rang-barang bo‘lib, ularning tabiati, tuzilishi va tasvirlanish uslubi boyligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maktabgacha yoshda ertakni idrok etish bolaning o‘ziga xos faoliyatiga aylanadi, bu ajoyib jozibali kuchga ega bo‘lib, bolaga erkin orzu qilish va xayol surish imkonini beradi. B.Bettelxaym, E.Fromm, K.Yung kabi olimlar ertakning bola shaxsining rivojlanishiga ta’siri haqida fikrlar bildirishgan. A.V. Gnezdilov, T.M. Grabenko, O.V. Zashchirinskaya, T.D.Zinkevich-Evstigneeva, M.A. Povalyaeva, N. Pogosova, D.Yu. Sokolov, S.A. Chernyaeva va boshqalar ushbu muammoni o‘rganish orqali shu sohani rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar. Ertaklar psixologik, terapevtik va rivojlanish ishlari uchun eng samarali usuldir. Ertaklar orqali terapiya qilish, D.Yu.Sokolovning fikriga ko‘ra, bola o‘z shaxsiyatini ochish va o‘rganish, resurslarini aniqlash va rivojlantirish uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ko‘pincha ertaklarda qo‘llaniladigan sehr va ertak muhiti bolaning atrof-muhitini quradigan, uning diqqat markazini va imkoniyatlar arsenalini kengaytiradigan sun’iy ramka (chegara) dan tashqariga chiqishga imkon beradi. Bu voqealarni rivojlantirish va hayotiy muammolarni hal qilishning boshqa mumkin bo‘lgan usullarini ko‘rishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

1.Ertaklarda xuddi hikoyalarga o‘xshab to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’ruzalar mavjud emas. Ertakda hech kim bolani "to‘g‘ri yashashga" o‘rgatmaydi, ya’ni to‘gri yashash usullari tushuntirilmaydi. Ertak hikoyasi voqealari tabiiy va mantiqiy ravishda bir-birini to‘ldirib boradi. Shundayqilib, bolabu dunyoda mavjud bo‘lgan sabab-oqibat munosabatlarini, o‘zligini his qiladi va o‘rganadi. Ertak, A.V.Gnezdilovning fikricha, ichki va tashqi dunyoni o‘zgartirish, uning go‘zalligi va o‘ziga xosligini ko‘rish va qabul qilish imkonini beradi.

2 . T.D. Zinkevich-Yevstigneyev katta maktabgacha yoshdagi bola uchun, eng muhimi, uningichki olamini, hissiy va kognitiv sohalarini rivojlantirish lozim deb biladi. Bu yoshdavridahissiyotlar bolaning faoliyatining asosiy tartibga soluvchisi hisoblanadi. Uning intellekti hali yahshirivojlanmagan, u muhokama qilishga hali tayyor emas, u faqat o‘ynashi mumkin holos. Va ertaklar olami bunday o‘yinlar uchun ajoyib tarzda moslashtirilgan. Zero, u dunyoqarashni kengaytiradi, dunyoning yaxlit ko‘rinishini shakllantiradi, rollixatti-harakatlar ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi, kognitiv va hissiy-irodaviysohaningrivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Natijalar. Ertaklar orqali bolalarga odob-axloq haqidagi bilimlarni etkazib berish osonroq kechadi. Ertaklar hamma yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va birdek ta’sir etadi. Ertaklarning ta’lim va tarbiyadagi ahamiyati shundaki, bola ushbu ertaklar talqinidagi qahramonlarning salbiy va ijobiy tomonlarini eshitish va ko‘rish yordamida o‘zlaridagi xulq-atvorning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini anglashi va o‘z xulqidagi salbiy tomonlarini o‘zgartirishi mumkun. Shu bilan bir qatorda, ertak bilan tanishish natijasida har bir ertak qahramonlarining xatti-harakatini ongli ravishda axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi har bir tarbiyachidan bolalarning axloqiy tarbiyalarini kengaytirib borish, xulq-atvorining axloqiy sabablarini aniqlab borish uchun, o‘ta e’tiborli bo‘lishni va ziyraklikni talab etadi. Hikoyalarni o‘qib, so‘zlab berish orqali , biz bolaning ichki dunyosini rivojlantiramiz. Ertaklar bolalarning his-tuyg‘ularini ham boyitadi. Ertak aytish, hikoya qilish natijasida, bolalar qahramonga hamdard bo‘ladilar, u bilan birga uning muvaffaqiyatsizliklari va g‘alabalarini boshdan kechiradilar. Bolalar ertak tinglar ekan, uni o‘z tasavvurida shakllantiradi. Ular ertakdagi muhit va qahramonlarni tasavvur qilishadi. Shunday qilib, ular ertak jarayonlarini spektakl tarzda o‘z tasavvurlarida ko‘radilar. Shuningdek, ertak eshitish jarayonida bolaning matnni tushunishi va undagi semantik aloqalarni topishi ancha osonlashadi, bu albatta, mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga samarali ta’sir qiladi. K.D.Ushinskiy rus xalq ertaklarini xalq pedagogikasining birinchi yorqin namunalari deb atagan. U ertaklarga xalq pedagogikasi yodgorligi sifatida qoyil qolgan holda, xalqning pedagogik dahosi

ISSN 3030-3907

bilan hech kim bellasha olmasligini yozadi. Boshqa xalqlarning ertaklari haqida ham shunday deyish kerak. Ertaklar badiiy va adabiy asar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida xalq uchun ko‘plab nazariy va amaliy sohalardagi axborotlar manbai hisoblanadi. Ular xalq pedagogikasining xazinasi hisoblanadi. Qolaversa, ularda pedagogik g‘oyalar mavjudligi uchun ertaklarni pedagogik asarlar qatoriga kirgizsak ham bo‘ladi.

Ma’lumki, Ushinskiy pedagogik sohada ideal, mukammal aqliy va axloqiy-estetik rivojlanishning uyg‘un shaxsi edi. Buyuk rus o‘qituvchisining qat’iy ishonchiga ko‘ra, xalq ertaklari materiali ta’limda keng qo‘llanilsa, bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Ertaklar tufayli mantiqiy fikrga ega bola qalbida go‘zal she’riy obraz birga rivojlanadi, hamda so‘z-mantiq tafakkuri, fantaziyasi, emotsional sohasi rivojlanishi guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ushinskiy ertaklarning pedagogik mazmuni va ularning bolaga psixologik ta’siri masalasini batafsil o‘rganib chiqdi. U xalq ertaklarini, bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlarida nashr etilgan hikoyalardan afzal deb bildi, chunki hikoyalar buyuk pedagog tomonidan: keksa inson yuzini yosh bolaning yuziga aylantirib qo‘ygandek, soxta deb ta’riflagan edi.

O‘zbek xalq ertaklari o‘zining soddaligi, xalqona til boyligi, jonli obrazlari bilan ajralib turadi. Ular avloddan-avlodga o‘tib kelgan va xalqning ma’naviy-madaniy hayotini aks ettirgan. Ertaklar ta’limiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Bolalar uchun ertaklar dunyo haqidagi birinchi bilim manbalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali quyidagi ta’limiy jihatlar shakllantiriladi:

- Dunyoqarashni kengaytirish – ertaklar orqali bolalar atrof-muhit, insoniy munosabatlar va hayotiy qadriyatlar bilan tanishadi.
- Tafakkurni rivojlantirish – ertak syujetlari bola tasavvurini boyitadi, unga tahlil qilish, sabab va oqibatni tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
- Til va nutqni rivojlantirish – ertaklar bolalar nutqini boyitadi, yangi so‘zlar, iboralar va til o‘ziga xosliklarini o‘rgatadi.
- Ijodkorlikni shakllantirish – ertaklar bolalarning tasavvurini oshirib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois ertaklar ta’lim jarayonida darsliklar, hikoyalar va dramatik chiqishlar orqali bolalarga etkaziladi.

O‘zbek xalq ertaklari tarbiyaviy jihatdan ham juda muhim. Ular orqali bolalar axloqiy me’yorlar bilan tanishib, yaxshi va yomonning farqini tushunib boradilar. Ertaklarning tarbiyaviy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Halollik va adolat – ko‘plab ertaklarda halol va mehnatsevar insonning g‘alabasi tasvirlanadi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida halol va yaxshi qizning omadga erishishi, yovuz qizning esa jazolanishi aks ettiriladi.

ISSN 3030-3907

2. Mehnatsevarlik – xalq ertaklari bolalarni mehnatsevar, fidoyi va harakatga intiluvchan bo‘lishga undaydi. Masalan, "Boychechak" ertagida qahramon mehnat bilan baxtga erishadi.

3. Mehr-oqibat va insoniylik – ertaklar insonlarga mehribon bo‘lish, ota-onani hurmat qilish, do‘stlarga sadoqatli bo‘lish kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi.

4. Mardlik va jasorat – ko‘plab ertaklarda qahramon jasurligi, donoligi va aqlli harakatlari bilan yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Masalan, "Alpomish" kabi epik ertaklar bunga misol bo‘la oladi.

5. Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash – barcha ertaklarda yaxshi va yomon obrazlar mavjud bo‘lib, natijada doim ezgulik g‘alaba qozonadi. Bu esa bolalarda odil bo‘lish hissini shakllantiradi. O‘zbek xalq ertaklari nafaqat badiiy asarlar, balki ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho manbalardir. Ular bolalar dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi va axloqiy qadriyatlarni singdiradi. Shu bois ertaklarni bolalar tarbiyasida keng qo‘llash, ularni maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq ertaklari milliy merosimizning ajralmas qismi bo‘lib, ular yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ertaklar xalq tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan va sinalgan muhim tarbiya vositasidir. Hayotda, inson tarbiyasi amaliyotida ertakning pedagogik ahamiyatini kattaligi dalillar asosida isbotlandi. Bolalar va ertak bir-biridan ajralmas, ular bir-biri uchun yaratilgan, shuning uchun ham har bir millat o‘z xalqining ertaklari bilan tanishish bolaning ta’lim va tarbiya jarayoniga kiritilishi shart. O‘zbek pedagogikasida ertaklar haqida nafaqat o‘quv materiali, balki pedagogik vosita, usulligi haqida ham fikrlar mavjud. Ertakning pedagogik vosita sifatidagi ma’nosini anglab, shuni tan olish kerakki, agar bolalarga bir xil axloqiy fazilatlarni kamida ming marta takrorlasak ham, bu ular uchun baribir tushunarsiz ya’ni, ma’no mazmuni anglanmagan bo‘lib qoladi; lekin ularga xuddi shu fikrga singib ketgan ertak aytib bersangiz, bola bundan hayajonlanib, hayratga tushadi. Ertaklarning tarbiyaviy roli katta hisoblanadi. Ertaklarning pedagogik ahamiyati insonning aqliy tomoniga emas, balki hissiy va estetik tomoniga ta’sir qiladi, degan fikr bor. Bu fikrga butunlay qo‘shilib bo‘lmaydi. Aqliy faoliyatni his-tuyg‘ularga qarama-qarshi qo‘yish tubdan noto‘g‘ri: hissiy soha va aqliy faoliyat ajralmasdir, his-tuyg‘ularsiz, haqiqatni bilish mumkin emas. Ertaklar mavzu va mazmuniga ko‘ra tinglovchilarni ko‘pincha o‘ylantiradi, fikrlashga undaydi. Ko‘pincha bola ertaklarni eshitishi natijasida “Hayotda bunday bo‘lmaydi” degan xulosaga keladi. Beixtiyor savol tug‘iladi: “Hayotda nima bo‘ladi?” Bu savolga javobni o‘z ichiga olgan ertak aytuvchining bola bilan suhbati ongli holatda amalga oshiriladi. Ammo ertaklar bevosita ongli axborotlarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki,

ISSN 3030-3907

ertaklarning ongli mazmuni, xalq urf-odatlari va an’analarining individual tafsilotlariga, xususan, hatto kundalik maishiy sohaga ham taalluqlidir. Albatta, ertaklarning tarbiyaviy mazmuni ham ertak aytuvchi shaxsga ham bog‘liq. Mahoratli ertak aytuvchilar, odatda, har doim imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qilib savollar yordamida bolada fikrlashni shakllantiradi. Masalan, ertak aytib eshittirilgandan so‘ng: “Bolalar sizlar nima deb o‘ylaysizlar, ertagimizda qancha hayvon bor edi? Xayvonlarning nomlarini eslay olasizlarmi?” va shunga o‘xshash savollar orqali bolalardagi tafakkurlarini rivojlantirishmumkin.

Xulosa. To‘g‘ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko‘plab muammolar – qo‘rquv, injiqlik kabilarni yo‘qotish unda qat’iyat va irodani shakllantiradi. Bolalar hodisalar, ishlar va harakatlar mazmunini ertaroq to‘g‘ri anglashni, hayotdagi har qanday kulgili voqealar ostida haqiqatlar yashiringanini tushunishni o‘rganadilar. Har bir ertakda bola uchun zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar bor, chunki u hayotdagi o‘z o‘rnini belgilashi, jamiyatdagi axloqiy va axloqiy xatti-harakatlar normalarini o‘rganishi kerak. Faylasuflar ertakni o‘rganib, uning ma’nosini insoniyatning ruhiy tajribasi shakllari sifatida ochib beradilar. Filologlar, birinchi navbatda, folklorshunoslar, “Ertak – xalqning unutilmas ruhining kiyimi” deb fikr yuritadilar. Ertak mavzusi psixologiyaning mustaqil fan sohasi sifatida rivojlanishining butun tarixi davomida to‘xtovsiz baxs va munozaralar obyekti bo‘lib kelgan. Uzoq vaqtdan beri psixologlar tomonidan ertaklar bir qarashda oddiy lekin, ajoyib hikoyalar ortida yashiringan tarbiyaviy, rivojlanish, psixodiagnostik, psixokorreksiyaviy, psixoterapevtik xususiyati mavjudligi, tan olingan. Biroq, bugungi kunda hamuni yuqori talabga ega deb aytish mumkin emas, bu uning mohiyati, ko‘lami va nazariy rejalaridagi savolning echimining noaniqligi bilan izohlanadi. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ertaklarning pedagogik hamda psixologik ahamiyati kognitiv jarayonlarga taa’luqli emas, balki hissiy va estetik jihatlarga tegishli, degan fikr bor. Bu fikrni to‘g‘ri deb aytib bo‘lmaydi. Kognitiv faoliyatning his-tuyg‘ularga qarama-qarshi degan fikr mutlaqo noto‘g‘ri: hissiy soha va kognitiv faoliyat ajralmasdir, his-tuyg‘ularsiz, haqiqatni bilish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zebiniso Ahmedova “Ertak terapiya” Toshkent- 2019.
2. Z.T. Nishanova, G.F.L. Alimova, A.G‘. Turg‘unboyeva, M.X. Asranboyeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent – 2017-y.
3. Rasulxo‘jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma – T.: “Ilm-Ziyo Zakovat” 2020.

ISSN 3030-3907

4. G. Tulenova, X. Xo‘jayev P. Xo‘jayeva. “Jismoniy tarnazariyasi va metodikasi”. T.: Ilm ziyo. 2012.
5. Xasanboyeva O.U. va boshq – Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – O‘quv qo‘llanma – T.: Ilm ziyo. 2012.
6. Xasanboeva O. va boshq – Oila pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma – T.: “Aloqachi”, 2007-y.

ISSN 3030-3907

AVTOMATIK ROSTLASHNING ASOSIY QONUNLARI

Sabirov Ulugbek Kuchkarovich
Andijon davlat texnika instituti Dotsent,
uqsabirovasu1951@gmail.com
Tel. +998 979951802

Annotatsiya: Maqolada avtomatik rostlashning integral (I-qonun), proportsional (P-qonun), proportsional-integral (PI-qonuni), proportsional-differentsial (PD-qonuni), proportsional-integral-differentsial (PID-qonuni) qonunlarining asosiy tavsiflari taqdim etilgan. Har bir rostlash qonuni struktura sxemalarda va rostlash jarayonlari grafiklarda ifodalangan. Ushbu maqola o`quvchilarga avtomatik rostlashning turli qonunlarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv sifati, avtomatik rostlash, I - qonun, P - qonun, PI - qonuni, PD - qonuni, PID - qonuni.

Аннотация: В статье даны основные описания интегрального (И-закона), пропорционального (П-закона), пропорционально-интегрального (ПИ-закона), пропорционально-дифференциального (ПД-закона) и пропорционально-интегрально-дифференциального (ПИД-закона) законов автоматического регулирования. Каждый закон регулирования представлен в структурных схемах, а процессы регулирования — в графиках. Данная статья предоставляет читателям возможность провести сравнительный анализ различных законов автоматического регулирования.

Ключевые слова: качество управления, автоматическое регулирование, И - закон, П - закон, ПИ - закон, ПД - закон, ПИД - закон.

Abstract: The article provides basic descriptions of the integral (I-law), proportional (P-law), proportional-integral (PI-law), proportional-differential (PD-law) and proportional-integral-differential (PID-law) laws of automatic control. Each control law is presented in structural diagrams, and the control processes are presented in graphs. This article provides readers with the opportunity to conduct a comparative analysis of various automatic control laws.

Keywords: control quality, automatic control, I-law, P-law, PI-law, PD-law, PID-law.

Kirish.

Ma`lumki, avtomatik boshqaruv tizimlari (ABT) qonunlarining asosiy maqsadi belgilangan boshqaruv maqsadlariga ma'lum sifat bilan erishishni ta'minlashdir. Boshqaruv sifati deganda boshqaruvning kutilayotgan va haqiqiy natijalari o'rtasidagi muvofiqlikni tushunamiz. Avtomatik rostlash (boshqaruv) qonunlari yordamida hal qilinadigan ba'zi masalalar sifatida quyidagilarni ta`kidlash mumkin:

ISSN 3030-3907

• muayyan texnologik jarayonni tavsiflovchi har qanday fizik miqdorning (parametrning) doimiyligini yoki uning ma'lum bir qonunga muvofiq o'zgarishini ta`minlash;

• ob'yekt parametrlarining o'zgarishiga yoki tashqi ta'sirlarga muvofiq boshqaruv tizimini moslashtirish;

• optimal boshqaruv harakatlarini shakllantirish;

• bir nechta mumkin bo'lgan ish rejimlaridan eng yaxshi rejimlarni avtomatik tanlash;

• xatolikni (mos kelmaslikni) nolga yoki ahamiyatsiz qiymatga kamaytirish.

Rostlash qonuni deganda ABTning dinamik ish rejimlarida rostlash ta`sirining m_{rost} rostlanadigan parametrga bog'liqligi $m_{rost} = f(j)$ tushuniladi.

Odatda, avtomatik rostlashning quyidagi asosiy qonunlari farqlanadi [1-8, 14-21]:

- integral (I - qonun);
- proportsional (P - qonun);
- proportsional-integral (PI qonuni);
- proportsional-differensial (PD - qonuni);
- proportsional-integral-differensial (PID qonuni).

Rostlash qonunlari rostlagichning asosiy elementlariga qo'shimcha elementlarni kiritish orqali olinadi.

Avtomatik rostlashning asosiy qonunlari, odatda, tizimni avtomatik ravishda optimal holatga keltirish uchun muhim nazariy printsiplarga asoslanadi. Quyidagi asosiy qonunlar avtomatik rostlash (boshqarish) tizimlarida qo'llaniladi:

1. Integral (I) rostlash: boshqaruvning bu turi xatolikning vaqt davomida yig'ilgan qiymatini hisobga oladi. Ya'ni, tizim vaqt o'tishi bilan xatolikni yo'qotishga intiladi, bu esa tizimni yanada barqaror qiladi va uzoq vaqt davomida xatolikni kamaytiradi. Integral (I-qonun) barqaror holatda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, I-rostlagich o`tish jarayonning va umuman tizimning barqarorligini pasayishiga olib keladi.

2. Proportional (P) rostlash: boshqaruvning bu turi tizimning xatolik qiymatiga proporsional javob beradi. Agar xatolik katta bo'lsa, tizim tezda korrektsiyalanadi, ammo xatolik kamayganida korrektsiyalash kamayadi. Bu oddiy va samarali, lekin ba'zida xatolikni to'liq yo'qotish uchun etarli bo'lmasligi mumkin. Proportsionallik (P-qonun) boshqariladigan o'zgaruvchining og'ishiga asoslangan rostlashni ifodalaydi. Ushbu qonunga ko'ra, rostlagich chiqishidagi signalning qiymati har doim uning kirish miqdori qiymatiga qat'iy proportsionaldir.

3. Proportsional-integral (PI-qonuni). Proportsional va integral boshqaruv qonunlarining ijobiy xususiyatlarini birlashtirishga imkon beradi.

ISSN 3030-3907

4. Proportsional-differensial (PD-qonun). O`tish rejimida tizimning harakatini yaxshilash uchun boshqaruv qonuniga xatoning hosilasi kiritiladi.

5. PID rostlash: bu uchta boshqaruvning kombinatsiyasidan iborat bo'lib, tizimda xatolikni minimallashtirishga xizmat qiladi. P (Proportional), I (Integrallash), va D (Differentsial) qismlarining moslashuvi orqali tizimni yanada optimallashtirish mumkin. PID boshqaruvi ko'plab sanoat tizimlarida keng qo'llaniladi. Proportsional-integral-differentsial (PID-qonuni) PI va PD rostlagichlarning ijobiy xususiyatlarini birlashtiradi. Integral komponent tufayli statik xatolik yo'q qilinadi va rostlash qonunida hosilaning mavjudligi tufayli yuqori chastotalarda rostlagichning kuchaytirish koeffitsiyenti oshadi, bu uning tezligini oshiradi.

Yuqoridagilardan tashqari, quyidagi rostlash va boshqarish qonunlari va usullari turli ABTda qo`llaniladi

1. Differentsial (D) rostlash: bu boshqaruv turi xatolikning o'zgarish tezligini nazorat qiladi. Agar xatolik juda tez o'zgarsa, tizim tezda javob qaytaradi. Bu, ayniqsa, tizimning o'zgarishiga tez javob berish kerak bo'lsa, foydalidir.

2. Teskari aloqa (feedback): avtomatik rostlash tizimida teskari aloqa tizimning chiqish qiymatlarini qayta ishlashga asoslangan. Tizimning chiqish signali orqaga qayta uzatilib, tizimni maqsadga mos ravishda sozlaydi, bu esa tizimni har doim optimal holatda ushlab turish imkoniyatini beradi.

3. Nochiziqli boshqaruv qonunlari orasida releli qonunlar eng keng tarqalgan. Ikki pozitsiyali va uch pozitsiyali boshqarish qonunlari mavjud.

4. Optimal boshqaruv: boshqaruvning bu turida tizimning barcha parametrlarini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlar qo'llaniladi. Bu usul muayyan matematik modellarga asoslanadi va tizimni eng yaxshi ishlashiga imkon yaratadi.

Avtomatik rostlash qonunlarining amaliy natijalari turli manbalarda [9, 14-21] tahlil qilingan.


Muhokamalar. Avtomatik rostlash qonunlarining amal qilishi chiziqli yoki chiziqlantirish mumkin bo`lgan ABT uchun o`rinli hisoblanadi. Bundan tshqari, ko`rilayotgan rostlash qonunlari uzluksiz jarayonlarda ustivorlik qiluvchi muayyan fizik parametrlarni avtomatik rostlashni nazarda tutadi.

Avtomatik rostlashning uzluksiz qonunlarini amalga oshiruvchi rostlagichlarga proportsional (P), integral (I), differentsial (D) va ularning kombinatsiyalaridan iborat rostlagichlar kiradi: proportsional-integral (PI), proportsional-differensial (PD) va proportsional-integral-differensial (PID). Ushbu qonunlarga ko'ra, uzluksiz sanoat kontrollerlari P-kontroller, PI-kontroller, PD-kontroller va PID-kontrollerlari sifatida belgilanadi.

ISSN 3030-3907

Quyida avtomatik rostlashning integral (I-qonun), proportsional (P-qonun), proportsional-integral (PI-qonuni), proportsional-differentsial (PD-qonuni), proportsional-integral-differentsial (PID-qonuni) qonunlarini ko`rib chiqamiz.

I–rostlash qonuni. I–rostlash qonunining struktura sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. I –rostlash qonunining struktura sxemasi: RO – rostlash organi, O`Q – o`lchov qurilmasi, TE – taqqoslovchi element, K – kuchaytirgich, IM – ijro mexanizmi.

I –rostlagichning asosiy elementlari: o'lchash qurilmasi (O`Q), taqqoslash elementi (TE), kuchaytirgich (K), ijro mexanizmi (IM). Ular rostlagichda ketma-ket ulanadi, shuning uchun rostlagichning uzatish funktsiyasini olish uchun ularni eng oddiy deb hisoblagan holda, ushbu elementlarning uzatish funktsiyalarini bilish kerak bo'ladi.

1. O`Q - bu parametrni $j$ o'lchash uchun datchik (sensor) (bosim, harorat, daraja va boshq.). Uni proportsional element deb hisoblaymiz. Bu erda o'lchash natijasi quyidagicha: $\psi = k_{O`Q}\varphi$. $k_{O`Q}$ - o'lchash qurilmasining kuchaytirish koeffitsiyenti. O'lchash qurilmasining uzatish funktsiyasi:

$$W_{O`Q}(p) = \frac{\psi(p)}{\varphi(p)} = k_{O`Q} \quad (1)$$

2. TE - taqqoslash elementida datchik va boshlang`ich signalni belgilovchi qurilmadan kelgan signallar ishoralari hisobga olingan holda bir-biriga qo'shiladi va xatolik signali hosil bo'ladi:

$$\pm\Delta\psi = (\psi - \psi_0) \quad (2)$$

Taqqoslash elementining uzatish funktsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_{TE}(p) = \frac{\Delta\psi}{(\psi - \psi_0)} = 1 \quad (3)$$

ISSN 3030-3907

3. K - kuchaytirgich kuchsiz signalini D_k ijro mexanizmining ishlashini boshqaradigan kuchli signalga s kuchaytirish uchun mo'ljallangan, shuning uchun uni proportsional element deb hisoblash mumkin. Shunda kuchaytirgichning tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma = k_{BQ}\Delta\psi \tag{4}$$

bu erda k_{BQ} - boshqaruv qurilmasining (BQ) kuchaytirish koeffitsienti. Kuchaytirgichning uzatish funksiyasi quyidagicha:

$$W_K(p) = \frac{\sigma(p)}{\Delta\psi(p)} \tag{5}$$

4. IM - ijro mexanizmi rostlash organini (RO) harakatga keltiradi. Ko'pincha, harakat doimiy tezlikda sodir bo'ladi, chunki u doimiy tezlikka ega bo'lgan elektr motor bilan jihozlangan. Shuning uchun ijro mexanizmini ideal integrallovchi element sifatida tasniflash mumkin. IMning tenglamasi:

$$T_{IM}\frac{d\mu_{rost}}{dt} = \sigma \tag{6}$$

IMning uzatish funksiyasi:

$$W_{IM}(p) = \frac{1}{T_{IM}p} \tag{7}$$

Rostlagichning uzatish funksiyasi:

$$W_{rost}(p) = \frac{\mu_{rost}(p)}{\varphi(p)} = W_{O`Q}\cdot W_{TE}\cdot W_K\cdot W_{IM} \tag{8}$$

$$= k_{O`Q}\cdot 1\cdot k_{BQ}\cdot\frac{1}{T_{IM}p}$$

Oxirgi munosabatdan operator ko'rinishidagi rostlagich tenglamasini olamiz:

$$T_{IM}p\mu_{rost} = k_{O`Q}\cdot k_{BQ}\varphi \tag{9}$$

undan rostlagichning differentsial tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{d\mu_{rost}}{dt} = \frac{k_{O`Q}\cdot k_{BQ}}{T_{IM}p} \tag{10}$$

Bu tenglamaning echimi rostlash qonunini beradi:

$$\mu_{rost} = \frac{k_{O`Q}\cdot k_{BQ}}{T_{IM}p}\int\varphi dt \tag{11}$$

Bu tenglamadan kelib chiqadiki, rostlash organining harakati m_{rost} vaqt t ichida o'lchangan qiymatning integraliga proportsionaldir (I-qonun). Avtomatikaga oid adabiyotlarda bu qonun quyidagicha tasvirlangan:

$$\mu_{rost} = \frac{k_p}{T_I}\int\varphi dt \tag{12}$$

bu erda T_I – integrallash vaqti; k_p – rostlagichning kuchaytirish koeffitsienti.


ISSN 3030-3907

3.19-rasmda I-rostlash jarayoni grafigi ko`rsatilgan, bu erda I-rostlagich bilan rostlash jarayoni: φ_0 - parametrning belgilangan qiymati; Δ_{sezm} - rostlagichning sezmaslik zonasi; A_1 - dinamik og'ish; t_r - rostlash vaqti.

I-qonunning afzalliklari: statik rejimlarda aniq rostlash (statik xatoliksiz).

Kamchiliklari: yomon dinamik xususiyatlar: dinamik og'ish A_1 va rostlash vaqti t_r katta. Buning sababi, rostlash organi rostlagichning sezmaslik zonasiga kirguncha usluksiz harakat qiladi.

I-qonunning afzalliklari va kamchiliklarini rostlash jarayonining grafigida (2-rasm) ko'rish mumkin, bu ob'ektga og`diruvchi ta`sir qo'llanilganda, rostlanadigan parametrning j vaqt o'tishi bilan o'zgarishida ko`rish mumkin.




2-rasm. Rostlash jarayoni grafigi.

Rostlagichning dinamik xususiyatlarini yaxshilash uchun vaqti-vaqti bilan rostlash organini oraliq holatda to'xtatib turish, uning doimiy harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shu maqsadda tartibga soluvchi qonunni o'zgartiradigan rostlash organining pozitsiyasiga teskari aloqa zanjirlari kiritiladi.

P–rostlash qonuni. Ushbu qonun rostlagichga rostlash organining pozitsiyasi bo'yicha qat'iy manfiy (salbiy) teskari aloqani kiritish orqali olinadi. Qattiq bog'lanish teskari aloqaniga proportsional elementning kiritilganligini anglatadi. Qayta aloqali rostlagichning struktura sxemasi 3–rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



3–rasm. Qayta aloqali rostlagichning struktura sxemasi.

Ushbu sxemada ham rostlagichning asosiy elementlari I-qonunni ko'rib chiqishdagi kabi bir xil, ya'ni ularning uzatish funktsiyalari ma'lum deb taxmin qilamiz.

Qattiq qayta aloqa tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\zeta = k_{tes.a}\mu_{rost} \tag{13}$$

Qattiq qayta aloqaning uzatish funktsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_{tes.a}(p) = \frac{\zeta(p)}{\mu_{rost}(p)} = k_{tes.a} \tag{14}$$

Rostlagichning uzatish funktsiyasi sxemada ajratib ko`rsatilgan murakkab ulanishning *I* uzatish funktsiyasini va IMning uzatish funksiyasini ko'paytirish orqali olinadi:

$$W_{rost}(p) = \frac{\mu_{rost}(p)}{\varphi(p)} = W_I(p)W_{O`Q}(p) \tag{15}$$

Teskari aloqali murakkab ulanishning *I* uzatish funktsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_I(p) = \frac{W_{TE} \cdot W_K \cdot W_{IM}}{1 + W_{TE} \cdot W_K \cdot W_{IM}W_{tes.a}} \tag{16}$$

Shunda rostlagichning uzatish funktsiyasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$W_{rost}(p) = \frac{\mu_{rost}(p)}{\varphi(p)} = \frac{k_{O`Q} \cdot 1 \cdot k_{BQ} \cdot \frac{1}{T_{IM}p}}{1 + k_{BQ} \cdot k_{tes.a} \cdot \frac{1}{T_{IM}p}} \tag{17}$$

$$= \frac{k_{O`Q} \cdot k_{BQ}}{T_{IM}p + k_{BQ} \cdot k_{tes.a}}$$

Oxirgi munosabatdan rostlagich tenglamasini olamiz:

ISSN 3030-3907

$$T_{IM}\frac{d\mu_{rost}}{dt} + k_{BQ}k_{tes.a}\mu_{rost} = k_{O`Q}k_{BQ}\varphi \quad (18)$$

Bu birinchi tartibli inertsial ob'ektning tenglamasi. Soddalashtirib ($T_{IM} = 0$) rostlagichning soddalashtirilgan tenglamasini olamiz:

$$\mu_{rost} = \frac{k_{O`Q}}{k_{tes.a}}\varphi \quad (19)$$

Bu tenglamadan μ_{rost} - rostlanadigan parametrning o'zgarishiga proportsional ekanligi aniq bo'ladi (P-qonun).

Avtomatikaga oid ayrim adabiyotlarda bu qonun quyidagicha tasvirlangan:

$$\mu_{rost} = k_p\varphi \quad (20)$$


bu erda $k_p = \frac{k_{O`Q}}{k_{tes.a}}$ – rostlagichning kuchaytirish koeffitsienti.

P-qonunining afzalliklari - bu rostlagichning yaxshi dinamik xususiyatlari. Rostlash organi teskari aloqaning ta'siri tufayli oraliq holatda to'xtaydi, uning kattaligi rostlash organi harakatlanishi m_{rost} bilan ortib boradi.

$$\Delta\psi = (\psi - \psi_0) - \zeta;\ y = y_0 + x \text{ bo'lganda } D_y = 0 \quad (21)$$

Kamchiliklari: tizimning statik ish rejimlarida rostlash xatosi paydo bo'ladi (rostlashning statik xatoligi), chunki rostlagich o'chirilganda teskari aloqa o'chmaydi.

Rostlagichning afzalliklari va kamchiliklarini rostlash jarayonining grafigida ko'rish mumkin (4-rasm):



4-rasm. P-rostlagich bilan rostlash jarayoni.

P-qonundan foydalanganda dinamik og'ish A_1 va rostlash vaqti t_r I-qonuniga qaraganda kamroq, shuning uchun P-qonun rostlashning ruxsat etilgan (mumkin bo`lgan) statik xatoligida $\varphi_{st.xat}$ qo'llaniladi.

ISSN 3030-3907

PI-rostlash qonuni. Ushbu qonun tartibga soluvchi organning pozitsiyasiga moslashuvchan manfiy (salbiy) teskari aloqani kiritish orqali olinadi. Moslashuvchan ulanish deganda, teskari aloqa haqiqiy (real) differentsiyalovchi elementni o'z ichiga oladi, uning kirish signali vaqtning dastlabki momentida maksimal bo'ladi va vaqt o'tishi bilan yo'qoladi. Binobarin, vaqtning dastlabki daqiqalarida rostlagich P-qonuniga muvofiq ishlaydi va oxirida, qayta aloqa o'chirilganda, u I-qonuniga muvofiq ishlaydi.

PI-rostlagichning struktura sxemasi P-rostlagichniki bilan bir xil, faqat teskari aloqa boshqacha - moslashuvchan. Rostlagichning asosiy elementlari P-rostlagichniki bilan bir xil: O`Q, TE, BQ, IM, faqat teskari aloqaning uzatish funktsiyasini hisobga olish kerak.

Moslashuvchan teskari aloqa tenglamasi quyidagicha:

$$T_{tes.a}\frac{d\zeta}{dt}+\zeta=T_{tes.a}\frac{d\mu_{rost}}{dt} \tag{22}$$

Demak, teskari aloqaning uzatish funksiyasi quyidagicha:

$$W_{tes.a}(p)=\frac{\zeta(p)}{\mu_{rost}(p)}=\frac{T_{tes.a}p}{T_{tes.a}p+1} \tag{23}$$

Rostlagichning uzatish funksiyasini P-qonunida olingandek harakat qilib olamiz:

$$W_{rost}(p)=\frac{\mu_{rost}(p)}{\varphi(p)}=W_I(p)W_{O`Q}(p) \tag{24}$$

$$=\frac{k_{O`Q}\cdot k_{BQ}(T_{tes.a}p+1)}{T_{IM}p(T_{tes.a}p+1)+k_{BQ}\cdot T_{tes.a}p}$$

Ushbu ifodadan rostlagichning operator ko'rinishidagi tenglamasi chiqadi:

$$T_{IM}p(T_{tes.a}p+1)\mu_{rost}+k_{O`Q}T_{tes.a}p\mu_{rost} \tag{25}$$

$$=k_{O`Q}\cdot k_{BQ}(T_{tes.a}p+1)\varphi$$

Bu erdan rostlagichning tenglamasi quyidagicha bo`ladi:

$$T_{IM}T_{tes.a}\frac{d^2\mu_{rost}}{dt^2}+\left(T_{IM}+k_{O`Q}T_{tes.a}\right)\frac{d\mu_{rost}}{dt}=$$

$$=k_{O`Q}\cdot k_{BQ}T_{tes.a}\frac{d\varphi}{dt}+k_{O`Q}\cdot k_{BQ}\varphi \tag{26}$$

$T_{IM}=0$ deb qabul qilib, ushbu tenglamani soddalashtiramiz:

$$T_{tes.a}\frac{d\mu_{rost}}{dt}=k_{O`Q}T_{tes.a}\frac{d\varphi}{dt}+k_{O`Q}\varphi \tag{27}$$

Uning echimi (o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan) quyidagi ifodani beradi:

$$\mu_{rost}=k_{O`Q}\varphi+\frac{k_{O`Q}}{T_{tes.a}}\int\varphi dt \tag{28}$$

ISSN 3030-3907


Ushbu tenglamadan ko'rinib turibdiki, rostlash organining harakati m_{rost} rostlanadigan parametrga va uning vaqt bo'yicha integraliga proportsionaldir (PI-qonuni).

Adabiyotlarda bu tenglama quyidagicha keltiriladi:

$$\mu_{rost} = k_p\varphi + \frac{k_p}{T_I}\int \varphi dt \qquad (29)$$

bu erda k_p va T_I PI-rostlagichni sozlash parametrlari (kuchaytirish koeffitsiyenti va integrallash vaqti).

PI-rostlagichli rostlash jarayonining grafigi 5–rasmda keltirilgan.



5–rasm. PI-rostlagichli rostlash jarayonining grafigi.


Grafikdan ko'rinib turibdiki, parametrining dinamik og'ishi A_1 va rostlash vaqti t_r I-qonuniga qaraganda kam. Bundan tashqari, statik rejimlarda rostlash xatoligi yo'q, chunki rostlagichning sezmaslik zonasi Δ_{sezm} chegaralarida parametrining φ o'rtacha qiymati belgilangan φ_0 qiymatiga teng.

Ushbu afzalliklarga ko'ra, PI-qonuni texnologik jarayonlarni rostlashda eng ko'p qo'llaniladigan qonun hisoblanadi.

PD- va PID-rostlash qonunlari. Ushbu rostlash qonunlari rostlanadigan parametrning φ o'zgarish tezligiga asoslangan rostlagichlarga qo'shimcha impuls kiritish orqali olinadi.

Rostlagichning struktura sxemasi 6–rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



6–rasm. PD- va PID- rostlagichlarga ega ABTning struktura sxemasi.

Df - differentsiator - signalni y vaqt bo'yicha differentsiallash qurilmasi (signalining y o'zgarish tezligi olinadi).

Rostlash qonunlarini olishda xulosalarni soddalashtirish uchun differentsiator sifatida ideal differentsiallash elementi ishlatiladi. Shunda differensiatorning tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\psi_1 = T_D \frac{d\psi}{dt} \tag{30}$$

bu erda T_D - differentsiallash vaqti.

Differentsiatorning uzatish funktsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_D(p) = \frac{\psi_1(p)}{\psi(p)} = T_D p \tag{31}$$

Rostlagich elementlarning murakkab birlashuvi sifatida I va II murakkab elementlarning ketma-ket ulanishi sifatida ifodalanishi mumkin. I ulanishning uzatish funksiyasini W_I sifatida olamiz. II ulanishning uzatish funksiyasi $O`Q$ va Df elementlarining uzatish funksiyalari yig‘indisi bilan ifodalanadi:

$$W_I(p) = W_{O`Q}(p) + W_{O`Q}(p) \cdot W_D(p) \tag{32}$$

$$W_{rost}(p) = W_I \cdot W_{II}. \tag{33}$$

Parametrning o'zgarish tezligi bo'yicha qo'shimcha signalni Df kiritish natijasini ko`rib chiqamiz. Buni bilvosita j va dj/dt signallarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi grafigida ko'rish mumkin (7-rasm).

Bu erda T - parametrining j tebranish davri.


ISSN 3030-3907

Faraz qilaylik, grafikda ko'rsatilganidek, o'lchangan parametr qonunga j muvofiq o'zgarsin. Grafikdagi o'zgarish tezligi $\varphi\left(\frac{d\varphi}{dt}\right)$ teginish nuqtasida $(tg\alpha)$ tangensning moyillik (egilish) burchagi α ning tangensidir - bu hosilaning grafik tasviridan ma'lum. Shunda u uzilgan-chiziqli (shtrixli) egri chiziq bo'ylab sifat jihatidan $\frac{d\varphi}{dt}$ o'zgaradi.

Rostlagichga (taqqoslash elementiga) signallar summasi $\left(\varphi + \frac{d\varphi}{dt}\right)$ beriladi, u grafikda j va $\frac{d\varphi}{dt}$ signallarni grafik qo'shish orqali olinadi. Bu quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Tezlik impulsi $\frac{d\varphi}{dt}$, rostlagichni parametr j sezmaslik zonasidan Δ_{sezm}tashqariga chiqmasidan oldin ishlashga majbur qiladi.

2. Vaqtning boshlang`ich momentlarida (tebranishlar davrining $T$ birinchi choragi chegaralarida) $j$ va $\frac{d\varphi}{dt}$ bo`yicha impulslar qo`shiladi (bir xil ishoraga ega). Rostlagichga qo`shilgan kuchli signal beriladi, uning ta`sirida rostlash o`rgani katta qiymatga suriladi (harakatlanadi). Natijada, muhit yoki energiyaning rostlanadigan ob`yektga kelishi tezroq ro`y beradi va muhit yoki energiyaning balansi ob`yektda tezroq o`rnatiladi.



7-rasm. j va dj/dt signallarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi grafigi.


3. Bu umuman olganda, parametrining dinamik og'ishi A_1 va rostlash vaqti t_r tezlik bo`yicha impuls kiritilmagan rostlagichlarga nisbatan kam bo`ladi.

ISSN 3030-3907

PD-rostlash qonuni. Bu qonun P-rostlash qonuniga tezlik $\frac{d\varphi}{dt}$ bo`yicha qo`shimcha impuls kiritilishi orqali olinadi.

Rostlagichning uzatish funktsiyasini olib, undan differentsial tenglamani olib, uni soddalashtirib ($T_{IM} = 0$) PD-rostlash qonunining tenglamasi olinadi. PD-rostlash qonunining tenglamasi adabiyotlarda quyidagi ko`rinishda keltiriladi:

$$\mu_{rost} = k_p\varphi + k_p \cdot T_D \frac{d\varphi}{dt} \quad (34)$$



8–rasm. PD-rostlash jarayonining grafigi.

Tenglamadan ko`rinib turibdiki, rostlash organining harakati $m_{rost}$, rostlanuvchi parametrning $j$ o`zgarishiga va o`zgarish tezligiga mutanosib (proportsional) – bu PD-rostlash qonunidir. Rostlash jarayonining grafigi 8–rasmda keltirilgan.

Grafikdan ko`rinib turibdiki, PD-rostlash qonunida parametrining dinamik og'ishi A_1 va rostlash vaqti t_r P-qonuniga qaraganda kam.


PID-rostlash qonuni. Bu qonun parametrning o'zgarish tezligiga qo'shimcha impulsni PI-qonuniga kiritish orqali olinadi.

Xuddi yuqoridagi kabi, rostlagichning uzatish funktsiyasini olib, undan differentsial tenglamani olib, uni soddalashtirib ($T_{IM} = 0$) PID-rostlash qonunining tenglamasini olish mumkin. PID-rostlash qonunining tenglamasi adabiyotlarda quyidagi ko`rinishda keltiriladi:

$$\mu_{rost} = k_p\varphi + \frac{k_p}{T_I}\int \varphi dt + k_p \cdot T_D \frac{d\varphi}{dt} \quad (35)$$

Tenglamadan ko`rinib turibdiki, rostlash organining harakati $m_{rost}$, rostlanuvchi parametrning $j$ o`zgarishiga, uning vaqt bo`yicha integraliga va hosilasiga mutanosib (proportsional) – bu PID-rostlash qonunidir. Rostlash jarayonining grafigi 9–rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



9–rasm. PID-rostlash jarayonining grafigi.

Grafikdan ko`rinib turibdiki, PID-rostlash qonunida parametrining dinamik og'ishi A_1 va rostlash vaqti t_r PI-qonuniga qaraganda kam.

PID qonuni avtomatik rostlashning asosiy qonunlaridan biri. Bu barcha qonunlar uchun umumiydir. Undan boshqa qonunlarni keltirib chiqarish mumkin.

Xulosalar. Yuqoridagi qonunlar avtomatik boshqaruv tizimini samarali boshqarish va uni optimal holatda ushlab turish uchun qo'llaniladi. Har bir tizimda u yoki bu usullarning kombinatsiyasi tanlanadi, bu tizimning o'ziga xos xususiyatlari va talablariga qarab farqlanadi. 1-jadvalda yuqorida ko`rib chiqilgan avtomatik rostlash qonunlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval

Avtomatik rostlash qonunlarining qiyosiy tahlili

Qonun-lar	Asosiy tavsiflari
I-qonun	- boshqarish signali vaqt bo`yicha xatolikning integraliga teng; - rostlash (boshqaruv) organining harakat tezligi xatolik qiymatiga mutanosib; - sozlash parametrlariga ega astatik yoki I-rostlagich tomonidan amalga oshiriladi; - integral rostlagichdan foydalanilganda, statik tartibga solish xatosi har doim nolga teng - bu ushbu rostlagichlarning asosiy afzalligi.
P-qonun	- rostlagichning chiqishidagi signalning qiymati har doim uning kirish miqdori qiymatiga qat'iy proportsionaldir; - kirish signalidagi o'zgarish chiqish signalidagi o'zgarishga qat'iy mos keladi (Inertsiyasizlik);

ISSN 3030-3907

	- rostlashning statik xatoligining mavjudligi. Bu holat ba'zi hollarda P-rostlagichdan foydalanishga imkon bermaydi, ammo ba`zi holatlarda statik xatolik P-qonunining ijobiy xususiyati sifatida ishlatiladi; - tezlikning yuqoriligi. Rostlanadigan o'zgaruvchi belgilangan qiymatdan chetga chiqqanda, rostlagich buzilishning tez kompensatsiyasini ta'minlaydigan og'ishning kattaligiga mutanosib rostlash harakatini ishlab chiqadi; • sozlash parametri - uzatish koeffitsienti, u rostlagichni rostlanadigan qiymatning turli ruxsat etilgan og'ishlariga moslashtirish imkonini beradi.
D-qonun	Agar boshqariladigan o'zgaruvchi y vaqtning istalgan nuqtasida belgilangan qiymatdan tezda chetga chiqa boshlasa, bu holda boshqariladigan o'zgaruvchining o'zgarish tezligiga mutanosib boshqaruv harakatini yaratadigan rostlagichga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Differensial rostlagich, boshqariladigan o'zgaruvchining og'ish tezligi Δy yuqori bo'lsa, katta rostlash (boshqaruv) ta`sirini u hosil qiladi.
PI-qonun	- sozlash parametrlarining mavjudligi: mutanosiblik koeffitsienti K_p va vaqt konstantasi T_i (rostlagichning integrallash vaqti yoki izodrom vaqti); - astatiklik: ma'lum sharoitlarda rostlash organining harakat tezligining proportsional komponenti bo`lmasligi mumkin, lekin integral komponent saqlanib qoladi, bu PI-rostlagichdan astatik rostlagich sifatida tavsiflaydi (foydalanish mumkin). - strukturaning dinamikligi: PI-rostlagich ikkita parallel ulangan rostlagichlar tizimidir: proportsional va integral; - proportsional-integral boshqaruv past tezlikka ega va dinamik tizimlarni rostlsh uchun to`g`ri kelmaydi. Xatolarni to'planishi va yig'ilishi boshqaruv signalining oshishiga olib keladi, bu esa tizimning buzilishiga olib kelishi mumkin.
PD-qonun	- strukturaviy murakkablik. PD-qonuni ikkita bog'langan bo'g'inlardan iborat: differentsial (D) va proportsional (P); - rostlashning ifodasi. PD-qonuni rostlanadigan o'zgaruvchining va uning hosilasining og'ishi bo`yicha rostlashni ifodalaydi; - differentsiallash doimiyligining mavjudligi. U vaqt o'lchamiga ega va differentsiallash doimiysi yoki etkazib berish vaqti deb ataladi. Differensial komponent rostlash ta`sirini o`tish rejimlarida majburlaydi, shuning uchun u ilgarilovchi boshqaruv elementi deb ataladi; - rostlagichning chiqishiga ta'siri. Rostlanadigan o'zgaruvchi qanchalik katta va tez o'zgarsa, oldindan nazorat qilishning rostlagich chiqishiga ta'siri shunchalik katta bo'ladi;

ISSN 3030-3907

	- barqaror holatda ishlash. Ushbu rejimda PD-rostlagich statik bo'lib qoladi va og'ish to'liq bartaraf etilmaydi.
- **Yuzaki taranglik** – yog‘ va oqsillar dispersiyasiga bog‘liq
- **Reologik xossalari** – sutsimon emulsiyaning viskozligi va turli harorat rejimlarida barqarorligi

Sutning fizik-kimyoviy tuzilishi uni fermentatsiya, pastyerizatsiya va qurutish jarayonlarida yuqori samarali ishlov berish imkonini beradi. Sanoat miqyosida homogenizatsiya, membrana texnologiyalari va pastyerizatsiya kabi usullar sutni qayta ishlashda keng qo‘llaniladi.

USULLAR (METHODS)

Sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar

Zamonaviy sut sanoati sifat, samaradorlik va xavfsizlikni oshirish maqsadida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashga asoslangan. Ushbu texnologiyalar sut mahsulotlarining biologik qiymatini saqlash, saqlash muddatini uzaytirish va iste’molchilar talablariga javob berish uchun ishlab chiqilgan. Bugungi kunda quyidagi ilg‘or texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

- Membranali filtratsiya texnologiyalari – sut tarkibidagi zarrachalar va mikroorganizmlarni ajratib olish uchun ultra-filtratsiya va mikrofiltratsiya usullari ishlatiladi [6].
- Issiqlik bilan ishlov berish – pastyerizatsiya va sterilizatsiya sutning xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi [7].
- Biotexnologik yondashuvlar – probiyotik va prebiotiklar qo‘shish, fermentativ jarayonlar orqali sut mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini oshirish [8].
- Gomogenizatsiya – sut tarkibidagi yog‘ globulalarini kichraytirish orqali mahsulotning barqarorligi va hazm bo‘lish qobiliyatini oshirish [9].
- Quritish va kontsentratsiyalash – quruq sut va sut kukunlari ishlab chiqarish uchun spray-drying, freeze-drying texnologiyalari ishlatiladi [10].

Ushbu texnologiyalar yordamida sut mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishiga erishiladi.

Innovatsion jarayonlar: ultra-filtratsiya, mikrofiltratsiya, pastyorizatsiya va fermentatsiya usullari

Ultra-filtratsiya va mikrofiltratsiya

Ultra-filtratsiya (UF) va mikrofiltratsiya (MF) texnologiyalari sut mahsulotlarini tozalash, mikroorganizmlarni ajratib olish va sifatini oshirish uchun ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

• Ultra-filtratsiya – yuqori bosim ostida membrana yordamida sut tarkibidan katta molekulalarni ajratib olish uchun qo‘llaniladi [11]. Ushbu jarayon pishloq, yogurt va quruq sut ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

• Mikrofiltratsiya – mikroorganizmlarni sutdan ajratish va uning saqlash muddatini oshirish uchun ishlatiladi [12]. Yuqori sifatli pasterizatsiyalanmagan sut va uzoq saqlanadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Pastyerizatsiya

Pastyerizatsiya – bu sut tarkibidagi zararli mikroorganizmlarni yo‘qotish uchun issiqlik bilan ishlov berish usuli bo‘lib, uch asosiy turga bo‘linadi:

1. Past haroratli uzoq muddatli pastyerizatsiya (LTLT) – sutni 62-65°C da 30 daqiqa davomida qizdirish.
2. Yuqori haroratli qisqa muddatli pastyerizatsiya (HTST) – sutni 72-75°C da 15 soniya davomida qizdirish.
3. Ultra yuqori haroratli sterilizatsiya (UHT) – sutni 135-150°C da 2-5 soniya davomida qizdirish, bu esa mahsulotning saqlash muddatini keskin oshirish imkonini beradi [13].

Ushbu texnologiya sut mahsulotlarining xavfsizligini ta’minlaydi, lekin mikroelementlar va vitaminlarning buzilishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun uni alternativ usullar bilan birlashtirish tavsiya etiladi.

Fermentatsiya

Fermentatsiya sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda probiyotik va prebiotik mikroorganizmlar yordamida sifatni oshirish uchun ishlatiladigan biotexnologik jarayon hisoblanadi. Ushbu usul quyidagi afzalliklarga ega:

• Sutning biologik qiymatini oshirish – fermentatsiya davomida laktobakteriyalar va bifidobakteriyalar ko‘payib, foydali moddalarning hazm bo‘lishini yaxshilaydi.

• Saqlash muddatini uzaytirish – mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan organik kislotalar va antibakterial moddalari mahsulotning buzilish jarayonini sekinlashtiradi.

• Tuzilishi va ta’mini yaxshilash – fermentatsiya orqali yogurt, kefir va boshqa mahsulotlarning konsistensiyasi va ta’mi yaxshilanadi [14].

Fermentatsiya jarayoni probiyotik sut mahsulotlari, funksional yogurtlar va boshqa sog‘liq uchun foydali mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Sut mahsulotlarini boyitish va biotexnologik yondashuvlar

Zamonaviy sut sanoati boyitish texnologiyalaridan foydalanib, mahsulotlarning oziqaviy qiymatini oshirishga qaratilgan. Quyidagi usullar keng tarqalgan:

ISSN 3030-3907

• Vitamin va mineral qo‘shish – D vitamini, kalsiy va temir kabi moddalar qo‘shish orqali mahsulotlar sifatini oshirish.

• Probiyotik va prebiotik qo‘shish – foydali mikroorganizmlar qo‘shib, ichak mikroflorasini yaxshilash va immunitetni oshirish.

• Biotexnologik modifikatsiya – fermentativ ishlov berish va genetik o‘zgartirilgan mikroorganizmlar yordamida mahsulotlarni yaxshilash [15].

Ushbu yondashuvlar zamonaviy sut sanoatida sifatli va foydali mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sutni cho‘ktirishning zamonaviy usullari

Sutni qayta ishlash sanoatida cho‘ktirish muhim jarayon bo‘lib, u pishloq ishlab chiqarish, zardob ajratish va mikroorganizmlarni kamaytirish kabi jarayonlarda keng qo‘llaniladi. An’anaviy cho‘ktirish usullari issiqlik bilan ishlov berish va kislotalash jarayonlariga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar yuqori samaradorlikka ega va mahsulot sifati, mikrobiologik xavfsizlik hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Quyida sutni cho‘ktirishning zamonaviy usullari keltirilgan:

1. Ultrafiltratsiya va mikrofiltratsiya yordamida cho‘ktirish

• Ushbu texnologiyalar membrana filtratsiyasi tamoyiliga asoslanadi va sutdagi katta oqsil molekulalari, yog‘lar va bakteriyalarni ajratib olish uchun qo‘llaniladi.

• Pishloq ishlab chiqarishda ultrafiltratsiya pishloqning tuzilishini yaxshilaydi va oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish imkonini beradi.

• Mikrofiltratsiya yordamida sut mikroorganizmlardan tozalanadi, bu esa pastyerizatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi [16].

2. Enzimatik cho‘ktirish

• Fermentlar yordamida sutni cho‘ktirish tabiiy usullardan biri bo‘lib, kimozin (rennet) va proteolitik fermentlar orqali sut oqsillarini koagulyatsiya qilishga asoslanadi [19].

• Bu usul yumshoq va qattiq pishloq ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi va mahsulotning ta’mi hamda tuzilishini yaxshilaydi [17].

3. Elektrokimyoviy cho‘ktirish

• Ushbu texnologiya elektr maydoni ta’sirida sut tarkibidagi zarrachalarni ajratish orqali ishlaydi.

• Pishloq ishlab chiqarishda barqaror tuzilmani ta’minlaydi va kimyoviy moddalar ishlatilishini kamaytiradi [18].

4. Ultratovush yordamida cho‘ktirish

• Yuqori intensivlikdagi ultratovush to‘lqinlari sutdagi oqsillar va yog‘larni tezroq cho‘ktirish imkonini beradi [19].

ISSN 3030-3907

• Ushbu usul sut mahsulotlarining tuzilishini yaxshilash, ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish va yog‘ va oqsillarni bir xil taqsimlash imkonini beradi.

Ultratovushli cho‘ktirishning boshqa usullardan afzalliklari

Ultratovushli cho‘ktirish usuli an’anaviy va boshqa zamonaviy usullarga nisbatan bir qator muhim afzalliklarga ega. Quyida uning asosiy ustunliklari keltirilgan:

- Ultratovushli texnologiya sut oqsillari va yog‘larini tez va samarali koagulyatsiya qilish imkonini beradi.
- Pishloq ishlab chiqarish jarayoni tezlashadi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.
- Oddiy cho‘ktirish jarayonlarida ba’zan notekis tuzilish va ajralish muammolari kuzatilsa, ultratovush bir xil va barqaror tuzilmani ta’minlaydi.
- Pishloq va boshqa mahsulotlarda yumshoq va nozik tuzilish hosil bo‘ladi.
- Ultratovush bakteriyalarni mexanik zararlash va issiqlik ta’siri bilan yo‘q qilishga yordam beradi, bu esa mikroorganizmlar miqdorini kamaytiradi [20].
- Bu usul antiseptik vositalar va qo‘shimcha kimyoviy ishlov berish jarayonlarini kamaytirish imkonini beradi.
- An’anaviy cho‘ktirish usullari ko‘p miqdorda kimyoviy moddalar ishlatilishini talab qilsa, ultratovush ekologik xavfsiz usul hisoblanadi.
- Ishlab chiqarish jarayonida kamroq chiqindi va ifloslantiruvchi moddalarning hosil bo‘lishi kuzatiladi.
- Ultrafiltratsiya va mikrofiltratsiya usullari bilan taqqoslaganda ultratovush kamroq energiya sarflaydi va mahsulot ishlab chiqarish jarayoni arzonroq bo‘ladi.
- An’anaviy issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari ko‘proq energiya talab qiladi, ultratovush esa energiya tejamkor texnologiya hisoblanadi [21].

Xususiyatlar	Ultratovushli cho'ktirish	Issiqlik bilan cho'ktirish	Kimyoviy cho'ktirish	Fermentativ cho'ktirish
Ishlab chiqarish samaradorligi	Yuqori - sut oqsillarini tez va samarali koagulyatsiya qiladi	O'rtacha - uzoq jarayon talab qiladi	O'rtacha samaradorlik	Yuqori - fermentlar tabiiy koagulyatsiyani ta'minlaydi

ISSN 3030-3907

Sut mahsulotlarining tuzilishi	Bargavor va nozik tuzilish hosil qiladi	Ba'zan notekis tuzilish yuzaga kelishi mumkin	Ba'zan ko'proq mo'rt tuzilish kuzatilishi mumkin	Tabiiy va yumshoq tuzilish
Mikrobiologik xavfsizlik	Bakteriyalarni mexanik zararlash va issiqlik bilan yo'q qilish orqali xavfsizlikni oshiradi	Mikroblarni yo'qotish samarali, ammo ba'zan past haroratli yuz beradi	Kimyoviy reagentlar mikrofloraga ta'sir qiladi, lekin ba'zan qoldiqlar qolishi mumkin	Mikrobiologik xavfsizlik yuqori, ammo ferment qoldiqlari qolishi mumkin
Atrof-muhitga ta'siri	Kimyoviy moddalarsiz, ekologik xavfsiz	Ko'p energiya talab qiladi, ko'proq chiqindi	Kimyoviy moddalar foydali emas, ekologik xavfsiz emas	Ekologik xavfsiz, lekin maxsus sharoit talab qiladi
Energiyaning sarfi	Kam energiya talab qiladi, yuqori samaradorlik	Yuqori energiya sarfi	O'rtacha energiya sarfi	O'rtacha energiya sarfi
Mahsulot sifatiga ta'siri	Mahsulot sifatini saqlaydi, yog' va oqsillar bir xil taqsimlanadi	Ba'zi oziq moddalar buziladi, lazzat o'zgarishi mumkin	Kimyoviy qoldiqlar tufayli ba'zi mahsulotlar sifati pasayishi mumkin	Yaxshi lazzat va sifat saqlanadi
Texnologiyaning iqtisodiy samaradorligi	Past xarajatli, ishlab chiqarish jarayoni qisqa	Ishlab chiqarish xarajati yuqori	Ba'zan qimmat reagentlar talab qilinadi	O'rtacha narx talab qiladi, ba'zan fermentlar qimmat bo'lishi mumkin
Mahsulotning saqlash muddati	Saqlash muddati uzoq	O'rtacha - past temperaturali usullar uzoqroq	O'rtacha - ba'zan uzoqroq	Saqlash muddati uzaytirilishi mumkin

ISSN 3030-3907

		saqlash imkonini beradi	saqlash mumkin	
Qayta ishlash jarayonining davomiyligi	Qisqa - jarayon tez va samarali	Uzoq - jarayon davomiyligi katta	O'rtacha davomiylik	O'rtacha davomiylik
Sanoat miqyosida qo'llash qulayligi	Sanoat miqyosida qo'llash qulay va oson avtomatlashtiriladi	Sanoat miqyosida keng tarqalgan, lekin energiya talab yuqori	Sanoat miqyosida qo'llaniladi, lekin ekologik talablar cheklaydi	Sanoat miqyosida qo'llash oson, lekin ferment etkazib berish talab etiladi

NATIJA

Sutni qayta ishlash sanoati samaradorlik, mahsulot sifati va ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida turli xil zamonaviy cho‘ktirish texnologiyalarini joriy qilmoqda. Ultratovushli cho‘ktirish an’anaviy va zamonaviy boshqa usullarga qaraganda ko‘proq afzalliklarga ega bo‘lib, tezroq va samaraliroq cho‘ktirish, yuqori sifat, past energiya sarfi va ekologik xavfsizlik bilan ajralib turadi. Ushbu usul yordamida sut mahsulotlarini tezroq ishlab chiqarish, yuqori sifat va barqaror tuzilish hosil qilish hamda mikroorganizmlar sonini kamaytirish imkoniyati mavjud.

Zamonaviy sut sanoatida ultratovush texnologiyasi qo‘llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yuqori sifatli mahsulotlarni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa iste’molchilar talabiga javob beradigan sog‘lom va ekologik xavfsiz sut mahsulotlari ishlab chiqarishga yo‘l ochadi.

XULOSA

Sut mahsulotlarini qayta ishlash sanoati innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy usullar orasida ultratovushli cho‘ktirish texnologiyasi eng samarali va istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu usul sut mahsulotlarining sifatini oshirish, mikrobiologik xavfsizlikni ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda sezilarli ustunliklarga ega.

An’anaviy cho‘ktirish usullari, jumladan, issiqlik bilan ishlov berish, fermentativ va kimyoviy cho‘ktirish usullari ba’zan mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, energiya sarfini oshirishi va ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytirishi mumkin. Ultratovushli texnologiya esa yuqori

ISSN 3030-3907

chastotali to‘lqinlar yordamida sut tarkibidagi oqsillar va yog‘larning tezroq koagulyatsiyasini ta’minlaydi. Natijada mahsulot tuzilishi yaxshilanadi, ishlab chiqarish jarayoni qisqaradi, hamda mahsulot sifatini saqlab qolgan holda uzoq muddat saqlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, ultratovushli cho‘ktirish usuli ekologik xavfsizlik jihatidan ham an’anaviy usullardan ustun turadi. Kimyoviy moddalar yoki qo‘shimcha konservantlardan foydalanishga ehtiyoj kamayib, chiqindilar miqdori minimallashtiriladi. Shuningdek, bu usul kam energiya talab qilishi sababli iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonining avtomatlashtirilgan tizimlarga mosligi esa uni keng miqyosda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Umuman olganda, ultratovushli cho‘ktirish texnologiyasining sut mahsulotlari sanoatida qo‘llanishi sohaning yanada innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu texnologiya yordamida ishlab chiqaruvchilar iste’molchilarga yuqori sifatli, xavfsiz va uzoq muddat saqlanadigan mahsulotlar etkazib bera olishadi. Kelajakda ushbu usulning kengroq tatbiq etilishi sut sanoatining ekologik, iqtisodiy va texnologik samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Givens D.I. MILK Symposium review: The importance of milk and dairy foods in the diets of infants, adolescents, pregnant women, adults, and the elderly // Journal of Dairy Science. 2020. Vol. 103, № 11. P. 9681–9699.

2. Rektor A., Vatai G. Application of membrane filtration methods for must processing and preservation // Desalination. 2004. Vol. 162. P. 271–277.

3. https://www.oecd.org/en/publications/2019/07/oecd-fao-agricultural-outlook-2019-2028_g1g9f52f.html?utm_source=chatgpt.com.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, 2023-yil. [Elektron resurs]. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1453.pdf.

5. OECD, Food and Agriculture Organization of the United Nations. OECD-FAO Agricultural Outlook 2019-2028. OECD, 2019.

6. Barman S.R. et al. Membrane processes for removal of polyaromatic hydrocarbons from wastewater // Green Chemistry and Water Remediation: Research and Applications. Elsevier, 2021. P. 189–207.

ISSN 3030-3907

7. Dash K.K. et al. A comprehensive review on heat treatments and related impact on the quality and microbial safety of milk and milk-based products // Food Chemistry Advances. 2022. Vol. 1. P. 100041.

8. El Jeni R. et al. Invited review: “Probiotic” approaches to improving dairy production: Reassessing “magic foo-foo dust” // Journal of Dairy Science. 2024. Vol. 107, № 4. P. 1832–1856.

9. Ye A. et al. Effect of homogenization and heat treatment on the behavior of protein and fat globules during gastric digestion of milk // Journal of Dairy Science. 2017. Vol. 100, № 1. P. 36–47.

10. Baldelli A. et al. Spray freeze drying of dairy products: Effect of formulation on dispersibility // Journal of Food Engineering. 2022. Vol. 335. P. 111191.

11. Al-Akoum O., Ding L.H., Jaffrin M.Y. Microfiltration and ultrafiltration of UHT skim milk with a vibrating membrane module // Separation and Purification Technology. 2002. Vol. 28, № 3. P. 219–234.

12. Fernández García L., Álvarez Blanco S., Riera Rodríguez F.A. Microfiltration applied to dairy streams: removal of bacteria // J Sci Food Agric. 2013. Vol. 93, № 2. P. 187–196.

13. Melini F. et al. Raw and Heat-Treated Milk: From Public Health Risks to Nutritional Quality // Beverages. 2017. Vol. 3, № 4. P. 54.

14. García-Burgos M. et al. New perspectives in fermented dairy products and their health relevance // Journal of Functional Foods. 2020. Vol. 72. P. 104059.

15. Adinepour F. et al. Fortification/enrichment of milk and dairy products by encapsulated bioactive ingredients // Food Research International. 2022. Vol. 157. P. 111212.

16. Xu Z. et al. Chemical precipitation enabled UF and MF filtration for lead removal // Journal of Water Process Engineering. 2021. Vol. 41. P. 101987.

17. Rastmanesh S. et al. Enzymatically and chemically starch nanoparticles preparation using ultrasonication, precipitation and lyophilization post-treatments: Screening and characterization // International Journal of Biological Macromolecules. 2024. Vol. 277. P. 134506.

18. Brincoveanu O. et al. Prussian blue nanocubes growth by electrochemical deposition on sulfur-doped graphene as nanozyme: Optimization

ISSN 3030-3907

and application in the field of environmental sensors // Applied Surface Science Advances. 2025. Vol. 26. P. 100716.

19. Chen X. et al. A Comparative Study of Ultrasound and Thermal Processing: Effects on Stability and Protein Structure in Goat Milk // Journal of Dairy Science. 2025. P. S0022030225000487.

20. Piyasena P., Mohareb E., McKellar R.C. Inactivation of microbes using ultrasound: a review // International Journal of Food Microbiology. 2003. Vol. 87, № 3. P. 207–216.

21. Chen F., Zhang M., Yang C. Application of ultrasound technology in processing of ready-to-eat fresh food: A review // Ultrasonics Sonochemistry. 2020. Vol. 63. P. 104953.

ISSN 3030-3907

ALLIUM MOTOR O‘SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TAHLILI

Yo‘ldoshev S. S.
O‘zbekistin Milliy universiteti Magistr
Maxkamov B.G‘.
O‘zbekistin Milliy universiteti PhD
yoldoshevsohibjon35@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Allium motor o‘simligining vegetativ organlaridan ajratib olingan etanolli ekstrakt tarkibidagi yuqori miqdorda bo‘lgan N,N – dimetilatsetosetamin propan, di-n-desulfon, 2,4,6 Siklogeptatrien-1-on-3,5 bis-trimetilgeksan moddalari GC-MS usuli yordamida aniqlangan. Shuningdek, ekstraktning tarkibi sifat reaksiyalari va UB-spektroskopiya usuli yordamida flavanoidlar tarkibidagi $\pi - \pi^*$o‘tishlar hisobiga 410 nm sohada yutilish kuzatilgan. Ekstrakt tarkibidagi N,N-dimetilatsetosetaminning koronar vazodilatatorga nisbatan biologik faoligi PASS online dasturi yordamida 70% ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *Allium motor*, mador piyozi, ekstraksiya, etanol, spektroskopiya, spektrometriya, koronar vazodilatator.

Аннотация: В этом исследовании с использованием метода GC MS были идентифицированы высокие уровни N,N–диметилатсетосетамина пропан, ди N десульфона и 2,4,6-циклогептатрин-1-он-3,5 бис триметилгексан, полученные из вегетативных органов растения Allium motor посредством экстракции с использованием этанола. Кроме того, состав экстракта проявил абсорбцию на длине волны 410 нм, что обусловлено π-π* переходами во флавоноидном составе, что было подтверждено качественными реакциями и методом УФ-спектроскопии. Биологическая активность N,N диметилатсетосетамина в качестве коронарного вазодилататора была определена на уровне 70% с использованием онлайн-программы PASS.

Ключевые слова: Allium motor, лук, экстракция, этанол, спектроскопия, спектрометрия, коронарный вазодилататор.

Annotation: In this study, high levels of N,N–dimetilatsetosetamin propan, di N desulfon, and 2,4,6 Siklogeptatrien-1-on-3,5 bis trimetilgeksan—obtained from the vegetative organs of the Allium motor plant via ethanol extraction—were identified using the GC MS method. In addition, the extract’s composition exhibited an absorption at 410 nm due to π-π* transitions in the flavonoid content, as demonstrated by qualitative reactions and UV spectroscopy. The biological activity of N,N dimetilatsetosetamin as a coronary vasodilator was determined to be 70% using the PASS online program.

ISSN 3030-3907

Keywords: Allium motor, onion, extraction, ethanol, spectroscopy, spectrometry, coronary vasodilator.

Kirish.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning kun sayin oshishi, oziq-ovqat turlarining ko‘payib borishiga olib kelmoqda. Iste‘mol qilinadigan barcha oziq-ovqat va dori-darmon vositalarining kimyoviy tarkibini bilish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek mahalliy dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini tahlil qilish yordamida yangi dori vositalarini ishlab chiqarish amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dorivor o‘simliklarning ko‘pchiligi ma‘lum bir geografik hududga mansub bo‘lganligi sababli, ularning kimyoviy tarkibini o‘rganishda aynan shu hududda olib brogan ilmiy tadiqoq ishlarining natijalari boshqalarga qaraganda ishonchli hisoblanadi[1]. O‘zbekiston hududida ham ko‘plab dorivor o‘simliklar uchraydi va ularning ko‘pchiligining kimyoviy tarkibi hozirgacha o‘rganib kelinmoqda. O‘zbekistonda piyozdoshlar oilasiga mansub 30 ga yaqin turdagi o‘simliklar uchraydi va ulardan eng ko‘p tarqalganlari bu oddiy piyoz (*Allium cepa)*, sarimsoq(*Allium satvium*), ko‘k piyoz (*Allium fistulosum*), shivit(*Allium schoenoprasum*) hisoblanadi[2-4]. Ularning 15 ga yaqin turi xalq tabobatida dorivor o‘simliklar sifatida ishlatiladi, 20 dan ortiq turlari esa iste‘mol uchun yaroqlidir[5]. Piyozdoshlarning iste‘mol qilinadigan turlari kimyoviy tarkibi o‘rganilganda ushbu o‘simliklarda allicin, flavonoidlar, antioksidantlar (sarimsoqda);[6] kversetin, oltingugurtli birikmamalar, A, C, B6 vitaminlari(piyozda); karotin va efir moylari(shivitda) borligi aniqlangan[7]. Ushbu o‘simliklarning tarkibini aniqlashda asosan etanolli ekstaksiya usulidan foydalanilgan[8]. Ushbu o‘simliklar tarkibidan ajratib olingan moddalarning biologik faolligi o‘rganilganda bir nechta turdagi virus va bakteriyalarga qarshi samarali natijalar berganligi adabiyotlardan ma’lum[5-7].

TAJRIBA QISMI. Ushbu ishda o‘simlik na‘munalari 5 mm li mayda bo‘laklarga ajratib olindi va 72 soat davomida laboratoriya sharoitida quyosh nurlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushmaydigan holatda quritildi. Olingan namunalar tarozida tortib olindi va tubi yumaloq kolbaga solindi. Ekstaksiya uchun 96% li etanol ishlatildi va teskari sovutgich yordamida 80℃ haroratda ekstaksiya qilindi. Jarayon 3 soat davom etdi, olingan ekstaktning gomogen holatda ajratib olish uchun filtrdan o‘tkazildi. Ekstrakt tarkibidagi flovanoidlar sinfiga mansub moddalarni aniqlash uchun ekstraktdan 1 ml o‘lchab olindi. Ustiga 0,1 N li HCl eritmasi solib, ustidan kons. H_2SO_4 eritmasi quyildi va probirka chayqatildi. Biroz vaqt o‘tganidan so‘ng sariq cho‘kma tushishi kuzatildi. Ekstrakt tarkibidagi

ISSN 3030-3907


terpenoidlarni aniqlash uchun probirkaga ekstraktdan solinib, ustiga xloroform tomizildi, so‘ngra konsentrlangan sulfat kislota tomchilatib solinganda eritma rangi o‘zgarishi kuzatildi. Oltingugurtli birikmalarni aniqlash uchun qo‘llanilgan sifat reaksiyalarida asosiy reagent sifatida $AgNO_3$ va $Pb(CH_3OO)_2$ ishlatilganda qora rangli cho‘kma tushdi. Oltingugurtli organik birikmalar uchun sifat reaksiyalari o‘tkazilganda, probirkada qora rangdagi PbS cho‘kmaga tushishi kuzatildi. Natijada o‘simlikning o‘tkir hidga ega bo‘lishini oltingugrtli organik birikmalar, jumladan diallil disulfid mavjudligi bilan izohlash mumkin. Olingan cho‘kmaning sekin hosil bo‘lishi va kam miqdorda bo‘lishidan Allium motor o‘simligida boshqa piyozdoshlarga nisbatan kamroq miqdorda oltingugrtli birimalar mavjud degan xulosaga kelindi. Ekstrakt tarkibida uglevodlarning Podobedov-Molish sifat reaksiyasi, ekstrakt ustiga 10% li α-naftolning spirtli eritmasi hamda 4-5 tomchi konsentrlangan sulfat kislotasi eritmasidan solindi. Probirkada ikki qavat orasida binafsha rangli aylananing hosil bo‘lishi kuzatildi. Tajriba uchun olingan Allium motor o‘simligi namunalari quritib olinganda uning 40% massa qismi yo‘qolishi kuzatildi. Bundan o‘simlik tanasining katta qismini suv tashkil etadi deb xulosa qilish mumkin. O‘simlik tana massasida suvning ko‘p miqdorda bo‘lishi bu o‘simlikdagi biologik faol moddalarning qutbli erituvchilar ta‘sirida erish xususiyatlari mavjud degan xulosalarni keltirib chiqaradi. Quritilgan o‘simlikning tashqi ko‘rinishi va hidi o‘zgarmaganligi sababli o‘simlik tarkibida uchuvchan bo‘lgan va tez parchalanadigan moddalar mavjud emas degan xulosaga kelindi. Ajratib olingan ekstrakt ustida sifat reaksiyalari o‘tkazish uchun dastlab ekstrakt 96%li etanol bilan 1:4 nisbatda aralashtirib, suyultirib olindi. Sababi ekstrakt rangi xira qo‘ng‘ir tusda bo‘lganligi sababli rang o‘zgarishlarini vizual ko‘rish qiyin bo‘lishi mumkin. Suyultirib olingan ekstrakt esa tiniq rangli ko‘rinishga keldi. Flavanoidlar uchun sifat reaksiyalari o‘tkazilganda probirkada sariq rang o‘zgarishi kuzatildi. Terpenlar uchun sifat reaksiyasi o‘tkazilganda probirkadagi ekstrakt rangini och qo‘ng‘ir rangdan och sariq rangga o‘zgarishi kuzatildi. Natijada ekstrakt tarkibida monoterpenlar va seskviterpenlar, jumladan terpinen-4-ol, bisabolol, farnesen kabi moddalar mavjud bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ajratib olingan moddalarning kimyoviy tuzilishini aniqlash uchun UB-spektroskopiya, Gaz Xromatografiyasi – Mass spektrometriya (GC-MS) usullari yordamida tahlil qilindi. UB-spekroskopiya usuli berilgan namunadagi xromofor guruhlar va aromatik halqa saqlagan birikmalarni aniqlash uchun keng miqyosda ishlatilganligi sababli *Allium motor* o‘simligidan olingan ekstrakt tarkibidagi moddalarni aniqlashda ushbu usuldan foydalanildi. 1-rasmda o‘simlik

ISSN 3030-3907

ekstraktining nur yutish spektrlari berilgan bo‘lib, unda etiruvchi sifatida etanoldan foydalanilgan.




1-rasm. *Allium motor* o‘simligi etanolli ekstraktining UB spektri

Olingan natijalarga asosan ekstraktning turli xil to‘lqin uzunliklarida signal berishini kuzatish natijasida o‘simlik ekstrakti tarkibida turli xildagi sinf vakillari, jumladan flavanoidlar, terpenlar, tabiiy fenol birikmalari, alkaloidlar va boshqa sinf vakillarining borligi aniqlandi. UB-spektroskopiya usuli yordamida olingan natijalarga ko‘ra 410 nm to‘lqin uzunligi sohasida $\pi - \pi^*$ yutilish kuzatildi. Ushbu sohada qaysi moddalar nur yutishi tahlil qilingan adabiyotlarda berilgan natijalar bilan solishtirilganda bu sohada (400-450 nm) eng ko‘p terpenlar sinfiga mansub bo‘lgan moddalar chiqishi aniqlandi[9]. Bundan tashqari GC-MS usuli bo‘yicha olingan natijalarda ham o‘simlik ekstrakti tarkibida fitol moddasi mavjudligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib olingan UB-spektroskopiya natijasidagi 410 nm sohadagi signal $\pi - \pi^*$elektron o‘tishga tegishli bo‘lishi mumkin.

O‘simlikning etanolli ekstrakti tarkibini gaz xromatografiyasi-mass spektrometriya (GC-MS) yordamida tahlil qilinganida o‘simlik tarkibida 14 turdagi moddalarning kimyoviy tuzilishi aniqlandi (2-rasm).

ISSN 3030-3907



2-rasm. *Allium motor* o‘simligining gaz xromatografiya usuli bo‘yicha olingan xromatogrammasi

2-rasmdagi xromatogrammadan ko‘rinadiki, ekstrakt tarkibida 14 turdagi moddalar aniqlanganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu moddalarning kimyoviy tuzilishi mass-spektrometriya usulida aniqlandi. Mass-spektroskopiya usulida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

***Allium motor* o‘simligining GC-MS usuli bo‘yicha o‘rganilgan kimyoviy tarkibi**

№	Modda nomi	Massa ulushi (%)
1	Nanofin	3,40
2	Digliklamin	2,62
3	N,N – dimetilatsetosetamin atsetamid	1,79
4	N,N – dimetilatsetosetamin propan	18,85
5	Xinolin	1,68
6	Bisiklo geptan	9,66
7	Alanin-tirozin dipeptid	2,52
8	Tetradekanal	3,80
9	Fitol	6,78
10	Tetrasiklogeksan	1,89
11	Tris(tert-butildimetilsikloksi)arsan	1,72
12	Arsenat kislota	5,43

ISSN 3030-3907

13	4-metil-2-trimetilsikloksi-atsetofenon	1,37
14	Di-n-desulfon	13,49
15	Arsenit kislota	3,14
16	2,4,6 Siklogeptatrien-1-on-3,5 bis-trimetilgeksan	17,53
17	Siklogeksan	4,35
Jami		100

Ushbu jadvalda 2,4,6 Siklogeptatrien-1-on-3,5 bis-trimetilgeksan , Di-n-desulfon, N,N – dimetilatsetosetamin propan moddalarining yuqori konsentratsiyada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Allium motor o‘simligidan tayyorlangan mahsulotlar o‘rganilganda ularda immunitetni ko‘taruvchi, kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalarni yo‘qotuvchi, organizmni vitaminlar bilan ta‘minlovchi kabi xususiyatlar borligi aniqlangan[6]. O‘simlikning antibakterial xossalarga ega bo‘lishi flavanoid sinfiga mansub birikmalar hisobiga amalga oshishi mumkin.

Olingan moddalarning biologik faolligi haqidagi dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun PASS online dasturidan foydalanildi. Ushbu dastur kimyoviy birikmalarning farmakologik potensialini bashorat qilish uchun katta hajmdagi eksperimental ma‘lumotlarga asoslanadi. Bu esa aniqlangan komponentlarning biologik faolligini laboratoriya sinovlarisiz dastlabki baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, u vaqt va mablag‘ni tejashga xizmat qiladi. PASS online dasturi orqali moddalarning antibakterial, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va boshqa farmakologik xususiyatlari baholanadi. Shuningdek, dastur biologik faollik ehtimolini 4000 dan ortiq tur bo‘yicha tahlil qilish imkoniyatiga ega[9], bu esa moddalarning retseptorlar va fermentlarga ta‘sir qilish imkoniyatini oldindan bilishga yordam beradi [10]. Bu ishda PASS online dasturi orqali ushbu ekstrakt tarkibida ko‘p miqdorda bo‘lgan moddalarningning ehtimoliy biologik faolligi baholandi. Natijalarga ko‘ra, N,N-dimetilatsetosetamin propan va 2,4,6-Siklogeptatrien-1-on-3,5-bis-trimetilgeksan moddalari turli farmakologik xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Olingan natijalar 2-va 3-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

N,N-dimetilatsetosetamin propanning biokimyoviy xususiyatlari

Biokimyoviy faolligi	Faollik ehtimoli (Pa)	Izoh
Koronar vazodilatator	76%	Ushbu modda yurak qon-tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib,

ISSN 3030-3907

		tomirlarni kengaytirishi mumkin. Bu yurak ishemik kasalliklari va gipertoniya bilan bog‘liq patologiyalarni bartaraf etishda muhim omil bo‘lishi mumkin.
Lipid peroksidaza ingibitori	65%	Modda hujayralarda oksidlovchi stressni kamaytirish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa antioksidant faollik bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.
Antihipoksik ta‘sir	70%	Kislorod etishmovchiligi (gipoksiya) sharoitida ushbu birikma hujayralarning kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qisman qondirishga yordam berishi mumkin.
Kognitiv buzilishlarni davolash potensiali	64,8%	Ushbu modda neyroprotektiv ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli bor. Ya’ni, kognitiv buzilishlar (Altsgeymer kasalligi yoki demensiya) bilan bog‘liq patologiyalarga qarshi samaradorlik ko‘rsatishi mumkin.
Antineoplastik (o‘sma qarshi) faollik kuchaytiruvchi	81,2%	Ba‘zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu modda saraton hujayralari o‘sishini susaytiruvchi ta‘sirga ega bo‘lishi mumkin.
Spazmogen ta‘sir	73,2%	Bu modda silliq mushak spazmlarini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa ba‘zi klinik sharoitlarda nojo‘ya ta‘sir sifatida namoyon bo‘lishi ehtimoli bor.

3-jadval

2,4,6-Siklogeptatrien-1-on-3,5-bis-trimetilgeksan moddasining biokimyoviy faollik prognozi

Biokimyoviy faolligi	Faollik ehtimoli (Pa)	Izoh
Antibakterial faollik	81,2%	Bakteriyalarga qarshi ta‘sir ko‘rsatishi mumkin
Antiinflamator	78%	Yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish potensiali bor
Antifungal	74,8%	Zamburug‘ infeksiyalariga qarshi faollik ko‘rsatishi mumkin

ISSN 3030-3907

Antineoplastik	70,2%	Saraton hujayralariga qarshi ta‘sir ehtimoli bor
Antioksidant faollik	68,9%	Erkin radikallarga qarshi himoya xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin
Immunostimulyator	65,5%	Immun tizimini rag‘batlantirish ehtimoli bor
Sitotoksik ta‘sir	62%	Hujayralarga toksik ta‘sir ko‘rsatish ehtimoli bor

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rish mumkinki, o‘simlik tarkibidagi N,N-dimetilatsetosetamin propan moddasi yurak-qon tomir tizimi faolligini yaxshilash, organizmning viruslarga qarshi faolligini rag’batlantirishi (76% ehtimollikda) aniqlangan. 2,4,6-Siklogeptatrien-1-on-3,5-bis-trimetilgeksan moddasi yallig’lanishga qarshi yuqori faollikni (78%) namoyon qilgan.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishida Allium motor o‘simligining etanolli ekstrakti GC-MS va UB-spektroskopiya usullari yordamida tarkibida flavonoidlar, terpenlar, tabiiy fenol birikmalari, alkaloidlar va boshqa bioaktiv modda sinflari mavjudligi aniqlandi. Xususan, ekstrakt tarkibida 2,4,6 Siklogeptatrien-1-on-3,5 bis-trimetilgeksan, Di-n-desulfon va N,N-dimetilatsetosetamin propan moddalarining yuqori konsentratsiyada ekanligi qayd etilgan. UB-spektroskopiya usuli yordamida 410 nm to‘lqin uzunlik sohasida yutilish kuzatilgani, ushbu oraliqda asosan terpen sinfiga mansub moddalar borligidan dalolatdir. PASS online dasturi orqali olingan dastlabki ma’lumotlarga asoslanib, N,N-dimetilatsetosetamin propanning koronar vazodilatator, lipid peroksidaza ingibitori, antihipoksik va antineoplastik faolliklari aniqlangan. Natijalar Allium motor o‘simligining dorivor xususiyatlarini tasdiqlab, yangi dori vositalarini ishlab chiqishda uning qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Allium motor ekstraktining kimyoviy tarkibi va potentsial farmakologik faoliyatini mukammal tahlil qilish, uning kelajakdagi amaliy qo‘llanilishi uchun poydevor yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zuo, M., Liu, X., Liu, D., Zhao, H., Xuan, L., Jiang, W., & Li, W. (2018). *Extraction, Characterization and Antioxidant Activity in vitro of Proteins from Semen Allii Fistulosi*. Molecules, 23(12), 3235.

2. Zhang, Y., Wang, Y., Li, X., & Zhang, H. (2020). Phytochemical analysis and antioxidant activity of Allium species extracts. *Food Chemistry, 315*, 126297.

ISSN 3030-3907

3. Kim, J., Lee, H., & Park, S. (2021). UV-VIS Spectrophotometric Analysis of Allium sativum Extracts. *Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy*, *256*, 119671.

4. Kumar, S., Verma, A., & Kumar, V. (2021). GC-MS Analysis of Bioactive Compounds in Allium species. *Food Research International*, *143*, 110267.

5. Poroikov, V., Filimonov, D., Lagunin, A., & Gloriozova, T. (2014). Prediction of Activity Spectra for Substances: Twenty Years of Development. *Current Drug Discovery Technologies*, *11*(1), 28-41.

6. Jeong, C.-H., Kwak, J. H., Kim, J. H., Choi, G. N., Kim, D.-O., & Heo, H. J. (2011). Neuronal cell protective and antioxidant effects of phenolics obtained from Zanthoxylum piperitum leaf using in vitro model. *Food Chemistry*, *125*(2), 417–422

7. Kruse, A., & Dinjus, E. (2007). Hot compressed water as reaction medium and reactant properties and synthesis reactions. *Journal of Supercritical Fluids*, *39*, 362–380.

8. Arung, E. T., Furuta, S., Ishikawa, H., Kusuma, I. W., Shimizu, K., & Kondo, R. (2011). Anti-melanogenesis properties of quercetin- and its derivative-rich from Allium cepa. *Food Chemistry*, *124*(4), 1024–1028.

9. Nuutial, A. M., Puupponen-Pimiä, R., Aarni, M., & Oksman-Caldentey, K. M. (2003). Comparison of antioxidant activities of onion and garlic extracts by inhibition of lipid peroxidation and radical scavenging activity. *Food Chemistry*, *81*(4),485–493.

10. Singh, P. P., & Saldaña, M. D. A. (2011). Subcritical water extraction of phenolic compounds from potato peel. *Food Research International*, *44*(8), 2452–2458.

ISSN 3030-3907

UDK 621.31

ELEKTR TIZIMLARI HAMDA TEXNOLOGIYALARDAGI DINAMIK JARAYONLAR VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI

Sobirova Tursunoy Abdipatto qizi

Andijon davlat texnika instituti „Mashinasozlik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish“ kafedrasi assistenti, O‘zbekiston

0009-0000-6298-4373

tursunoy.sobirova.1993@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunga kelib elektr energiyasi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada elektr tizimlarining tuzilishi, dinamik jarayonlarning kelib chiqish omillari, ularni matematik modellashtirish usullari va zamonaviy texnologik echimlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, real hayotdagi misollar orqali ushbu jarayonlarni boshqarish va optimallashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Asosiy maqsadco‘quvchilarga ushbu sohada umumiy tushunchalar berish va keyingi tadqiqotlari uchun yo‘nalish ko‘rsatishdir.

Kalit so‘zlar: Elektr energiyasi, texnologiyalar, dinamik jarayon, generator, transformator, uzatish liniyalari, yuklama, boshqaruv, himoya, Smart Grid, sun’iy intellect.

Аннотация. Сегодня электричество стало неотъемлемой частью жизни людей. В данной статье рассмотрено строение электрических систем, факторы возникновения динамических процессов, методы их математического моделирования и современные технологические решения. Также на реальных примерах анализируются способы управления и оптимизации этих процессов. Основная цель — дать студентам общее представление об этой области и направить их к дальнейшим исследованиям.

Ключевые слова: Электроэнергетика, технологии, динамический процесс, генератор, трансформатор, линии электропередачи, нагрузка, управление, защита, Smart Grid, искусственный интеллект.

Abstract. Today, electricity has become an integral part of human life. This article examines the structure of electrical systems, the factors that cause dynamic processes, methods for their mathematical modeling, and modern technological solutions. It also analyzes ways to control and optimize these processes using real-life examples. The main goal is to provide students with a general understanding of this area and to indicate directions for further research.

Key words: Electric energy, technologies, dynamic process, generator, transformotor, transmission lines, load, control, protection, Smart Grid, artificial intelligence.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Elektr tizimlari va texnologiyalar nafaqat energiya ta’minotini ta’minlaydi, balki sanoat, transport, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr tizimlarda barqarorlik va samaradorlikni ta’minlash uchun dinamik jarayonlarni chuqur o‘rganish zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Dinamik jarayonlar deganda, elektr tizimlarida vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan holatlar, tebranishlar, o‘tkinchi jarayonlar va tashqi ta’sirlar natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar tushuniladi. Ushbu jarayonlarning noto‘g‘ri boshqarilishi yoki tahlil qilinmasligi tizimning ishdan chiqishiga, energiya yo‘qotishlariga va hatto katta miqyosdagi avariyalarga olib kelishi mumkin. Masalan, elektr tarmoqlarida qisqa tutashuvlar, yuklamalarning keskin o‘zgarishi yoki generatorlarning sinxronlashuvi buzilishi dinamik jarayonlarning yorqin namunasidir. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega [1].

Elektr tizimlari murakkab infratuzilma bo‘lib, energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimlarning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: generatorlar (elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi asosiy manba), transfor-matorlar (voltajni o‘zgartirib, energiyani uzatishni samarali qiladi), uzatish liniyalari (energiyani uzoq masofalarga etkazib beradi), yuklamalar (energiyani iste’mol qiluvchi qurilmalar va tizimlar), boshqaruv va himoya qurilmalari (tizimning barqaror ishlashini ta’minlaydi). Dinamik jarayonlar ushbu komponentlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ularning kelib chiqishi bir nechta omillarga bog‘liq:

- Tabiiy omillar. Chaqmoq urishi, shamol yoki harorat o‘zgarishi kabi tashqi sharoitlar tizimda tebranishlar yoki o‘tkinchi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.
- Texnogen omillar. Qisqa tutashuvlar, yuklamalarning keskin o‘zgarishi, generator-larning sinxronlashuvdan chiqishi yoki noto‘g‘ri boshqaruv dinamik jarayonlarni qo‘zg‘atadi.
- Ichki omillar. Tizimning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, uzatish liniyalarining sig‘imi yoki induktivligi, tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, agar elektr tarmoqqa kutilmaganda katta yuk ulansa, generatorlarning chastotasi va kuchlanishi o‘zgaradi. Bu holat tizimda o‘tkinchi jarayonlarni boshlaydi va agar boshqarilmasa, barqarorlikni yo‘qotishga olib keladi. Shu sababli, dinamik jarayonlarni tahlil qilish va oldindan bashorat qilish elektr tizimlarining samarali ishlashi uchun juda muhimdir [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Safarov A. tomonidan yozilgan ,,Elektr tarmoqlari va tizimlari”, Rasulov A.N., Raxmonov I.U.lar tomonidan yozilgan ,,Elektr tarmoqlari va tizimlari” darsliklarda elektr tizimlarining dinamik holatlari (masalan, yuk o‘zgarishi, avariya holatlari) haqida umumiy ma’lumot berilgan.

ISSN 3030-3907

Raxmonov I.U. tomonidan yozilgan "Elektr ta’minoti asoslari" va Imomnazarov A.T. yozgan "Elektr texnologiya asoslari" zamonaviy elektr ta’minoti tizimlarida dinamik jarayonlar haqida tushunchalar bergan. Weedy B.M., Cory B.J., Jenkins N., Ekanayake J.B., Strbac G. lar tayyorlagan "Electric Power Systems" va Theraja B.L., Theraja A.K. lar yozgan "Electrical Technology" kitoblari dinamik jarayonlarni o‘rganish uchun xalqaro miqyosda eng muhim manbalardan biridir.

Dinamik jarayonlarning xususiyatlari tizimning hajmi va murakkabligiga qarab farq qiladi. Kichik mahalliy tarmoqlarda bu jarayonlar odatda tez barqarorlashsa, katta milliy yoki xalqaro tarmoqlarda ular murakkabroq va uzoq davom etishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, real vaqt rejimida monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ushbu jarayonlarni boshqarishda katta yordam beradi. Zamonaviy elektr tizimlari juda murakkab bo‘lib, qo‘lda hisoblash deyarli imkonsiz. Shu sababli, MATLAB, Simulink, PSCAD kabi dasturiy vositalar keng qo‘llaniladi. Masalan, MATLAB yordamida tizimning o‘tkinchi jarayonlarini simulyatsiya qilish uchun quyidagi algoritmdan foydalaniladi:

1. Tizimning matematik modelini tuzish.
2. Boshlang‘ich shartlarni kiritish (masalan, yuklama qiymati).
3. Vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni hisoblash va grafik shaklida ko‘rsatish.

Masalan, agar tarmoqda qisqa tutashuv yuz bersa, simulyatsiya yordamida kuchlanish va chastotaning qanday o‘zgarishi aniqlanadi. Bu esa himoya qurilmalarini loyihalashda muhim ma’lumot beradi [3].

Kichik o‘zgarishlar uchun chiziqli modellar (masalan, kichik signal tahlili) qo‘llaniladi. Ammo katta miqyosli dinamik jarayonlar, masalan, tizimning butunlay ishdan chiqishi, chiziqsiz tenglamalar bilan tasvirlanadi. Chiziqsiz modellar murakkabroq bo‘lsa-da, real holatlarni aniqroq aks ettiradi. Matematik modellar nafaqat jarayonlarni tushunishga yordam beradi, balki tizimni optimallashtirish va avariyalarni oldini olishda ham qo‘llaniladi. Masalan, zamonaviy “Smart Grid” tizimlarida real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ushbu modellar asos qilib olinadi.

Elektr tizimlari va texnologiyalardagi dinamik jarayonlarning oldini olish, boshqarish va optimallashtirish zamonaviy energetika sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Quyida ushbu jarayonlarni samarali boshqarish uchun amaliy misollar va texnologik echimlar keltiriladi. Elektr tarmoqlarida dinamik jarayonlar ko‘pincha qisqa tutashuvlar, yuklamalarning keskin o‘zgarishi yoki generatorlarning sinxron-lashuvdan chiqishi kabi holatlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi echimlar qo‘llaniladi:

ISSN 3030-3907

- Avtomatik boshqaruv tizimlari (Automatic Voltage Regulators - AVR). Generator-larda kuchlanishning barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, agar tarmoqda yuklama keskin oshsa, AVR rotor oqimini avtomatik ravishda sozlaydi va tebranishlarni kamaytiradi.
- Releli himoya qurilmalari. Qisqa tutashuv yuzaga kelganda, relelar tizimning zararlangan qismini tezda ajratib qo‘yadi. Misol uchun, O‘zbekistonning Farg‘ona viloyatidagi elektr tarmoqlarida 2022 yilda qisqa tutashuv natijasida yuzaga kelgan avariya zamonaviy rele tizimlari yordamida 10 soniya ichida bartaraf etilgan edi.
- Fazali kompensatorlar. Uzatish liniyalarida reaktiv quvvatni boshqarish orqali tebranishlarni kamaytiradi. Bu usul katta masofali tarmoqlarda keng qo‘llaniladi [4].

„Smart Grid” (Aqlli tarmoq) texnologiyasi dinamik jarayonlarni boshqarishda inqilobiy echim sifatida qaraladi. Ushbu tizim real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va avtomatik qaror qabul qilish imkonini beradi. Smart Gridning asosiy afzalliklari:
- Monitoring va bashorat. Sensorlar va IoT (Internet of Things) qurilmalari yordamida tarmoqning har bir nuqtasidagi kuchlanish, chastota va yuklama doimiy ravishda kuzatiladi. Masalan, agar tarmoqda yuklama keskin oshsa, tizim avtomatik ravishda zaxira generatorlarni ishga tushiradi.
- Energiya saqlash tizimlari. Batareyalar yoki superkondensatorlar yordamida ortiqcha energiya saqlanib, dinamik jarayonlar paytida ishlatiladi. Bu usul, ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalarida (quyosh va shamol) keng tarqalgan.
- Dinamik yuklamani boshqarish. Smart Grid iste’molchilarning energiya sarfini avtomatik sozlaydi. Masalan, yuqori yuklama paytida maishiy texnikalarni vaqtincha o‘chirish orqali tarmoqqa tushadigan bosimni kamaytiradi [5].

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda Smart Grid texnologiyasi hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, Toshkent shahrida pilot loyihalar sinovdan o‘tkazilmoqda. 2024 yilda xabar qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, aqlli hisoblagichlar o‘rnatilishi tufayli energiya yo‘qotishlari 15% ga kamaygan.

Dinamik jarayonlarning natijalari turli tizimlarda o'lchanadigan fizikaviy va texnik parametrlar orqali ifodalanadi. Quyida elektr tizimlari va texnologiyalarda-gi dinamik jarayonlar uchun ba'zi raqamli natijalar keltirilgan:

1-jadval.

Elektr energiya tizimlarida dinamik jarayonlar natijalari

Ko’rsatkich	***Qiymati (odatiy)***	***Izoh***
O’tish jarayoni vaqti	0.1-5 soniya	Generator va yuklanish o‘zgarishida
Chastota tebranishi	±0.1 Hz	Kuchlanish o’zgarishlarida

ISSN 3030-3907

Chastota tiklanish vaqti	1-30 soniya	AGC (automatic generation control) tizimlarida
Chastota mustahkamlik chegarasi	49.5 - 50.5 Hz	50 Hz tizimlar uchun (±1%)
Kuchlanish pasayishi (sag)	10 - 90%	Yuklanish keskin o'zgarishlarida
Yuklanish keskin o'zgarishlarida	±10 - 100 MWt	SVC va STATCOM tizimlari orqali

2-jadval.

Elektr motorlar va dvigatellar uchun natijalar

Ko'rsatkich	***Qiymati (odatiy)***	***Izoh***
Ishga tushish toki (Inrush Current)	5 - 8×Nominal tok	Induksion motorlarda
Dvigatel aylanish tezligi (rpm)	1000 - 3600 rpm	Turli yuk sharoitlarida
O'tish jarayoni vaqti	0.2 - 3 sekund	Tezlik va moment o'zgarishlarida
Teskari aloqa vaqt kechikishi	<5 ms	Raqamli boshqaruv tizimlarida

Muhokama. Elektr tizimlaridagi dinamik jarayonlar tizimning vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan holatlarini, ya’ni o‘tkinchi va tebranish jarayonlarni anglatadi. Bular qisqa tutashuvlar, yuk o‘zgarishi, generatorlarning sinxronlashuvi yoki qayta tiklanadigan energiya manbalarining integratsiyasi kabi holatlarda yuzaga keladi. Weedy va boshqalarning “Electric Power Systems” kitobida ta’kidlanishicha, dinamik jarayonlar tizimning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ularni noto‘g‘ri boshqarish katta avariyalarga olib kelishi mumkin (masalan, 2003-yilgi AQSh shimoli-sharqidagi elektr uzilishi). Mahalliy kontekstda, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda, Safarov va boshqalarning “Elektr tarmoqlari va tizimlari” darsligiga ko‘ra, dinamik jarayonlar ko‘pincha eskirgan infratuzilma va yangi texnologiyalarni integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar bilan murakkablashadi. O‘tkinchi barqarorlik - qisqa tutashuv yoki katta yuk o‘zgarishi tufayli generatorlarning sinxronizmini yo‘qotishi. Theraja buni rotor burchagi dinamikasi bilan bog‘liq deb tushuntirgan. Tizimning past chastotali tebranishlari, masalan, elektromexanik tebranishlar, barqarorlikni xavf ostiga qo‘yadi. Weedy bu jarayonlarni kichik signal tahlili orqali modellashtirishni taklif qiladi [6].

ISSN 3030-3907

Qayta tiklanadigan energiya (quyosh, shamol) tizimlarni dinamik jihatdan murakkablashtiradi, chunki ularning o‘zgaruvchan tabiati an’anaviy tizimlar bilan moslashishni talab qiladi. Dinamik jarayonlar ko‘p hollarda eskirgan uskunalar va etarli monitoring tizimlari yo‘qligi tufayli yuzaga keladi. Masalan, qishda yuqori yuklanish yoki yozda issiqlik ta’sirida tarmoqlarning dinamik barqarorligi sinovdan o‘tadi. Elektr tizimlari va texnologiyalardagi dinamik jarayonlar zamonaviy energetika sohasining murakkab va dolzarb mavzusi hisoblanadi. Dinamik jarayonlarni samarali boshqarish uchun nazariy bilim, zamonaviy texnologiyalar va mahalliy sharoitlarni hisobga olish muhimdir.

Xulosa. Quyosh elektr stansiyalari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari ob-havo sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, dinamik jarayonlarning yuzaga kelishiga moyil. Masalan, bulutli kunlarda quyosh radiatsiyasining keskin pasayishi quvvat ishlab chiqarishda o‘zgarishlarga olib keladi. Bunday hollarda quyidagi echimlar qo‘llaniladi:

- Inverterlarning optimallashtirilishi. Zamonaviy inverterlar quvvat o‘zgarishlarini tezda sozlaydi va tarmoqqa sifatli energiya etkazib beradi.
Moyning qizishi uning oksidlanish jarayonini tezlashtiradi [1], ya’ni harorat qancha yuqori bo‘lsa, oksidlanish tezligi ham shuncha katta bo‘ladi. Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda oksidlanish 50-60°C haroratda ham sezilarli darajada bo‘lib, haroratning oshishi bilan moyning oksidlanish jadalligi ortib boradi. Moyning oksidlanishi asosiy xossalarining o‘zgarishi va sifat ko‘rsatgichlarining pasayishiga olib keladi.

G‘o‘za qatorlariga ishlov berishda mashina agregati bilan dala yuzasi orasidagi masofa (oraliq)ning ortishi havoning changlanganlik darajasining keskin pasayishiga sabab bo‘ladi. Agar agregatning tezligi 1,35 marta oshsa, havoning changlanganligi ham 1,3-1,5 marta ortishi aniqlangan.

Tuproqdan yurish qismi podshipniklarigacha bo‘lgan masofa 15; 45 va 65 sm oraliqlarda chang tarkibida mos ravishda 20-25; 30-35; 50-60 foiz kremniy ikki oksidi(SiO_2), 60-70; 55-65; 40-45 foiz alyuminiy, kalsiy va temir oksidlari, 10-15; 5-10,5 foiz turli elementlarning karbonatlari bo‘lishi mumkin [3].

Yoz mavsumida yo‘llardagi havoning changlik miqdori 1,5-2,0 g/m^3 gacha, paxta etishtirish tumanlarida esa 3,5 g/m^3 gacha etadi. Qumli to‘zonlar paytida cho‘llarda havoning changliligi 17,0 g/m^3 gachani tashkil qilishi mumkin. Chang bulutining miqyosi va uning barqarorligi tuproqning strukturasiga, mashinaning, shamolning harakatlanish tezligiga va ularning yo‘nalishiga bog‘liq. G‘ildiraklar tomonidan ko‘tarilgan tuproq changi mayda abraziv zarracha ko‘rinishida nafaqat detallar sirtiga o‘tiradi, balki, hatto yopiq agregatlar va uzellar ichiga ham kirib boradi [3].

Issiq iqlim sharoitida mashinalarni ishlatish shuni ko‘rsatadiki, bu zonada ishlaydigan mashinalar detallarining eyilish jadalligi mo‘tadil iqlim sharoitiga qaraganda 2-10 marta ortiq. Bu holat mana shunday iqlim sharoitlarida qo‘llaniladigan mashinalar, mexanizmlar va turli texnika vositalarining umrboqiyligini oshirishda, barcha ishchanlik qobiliyati mezonlarini barqaror

ISSN 3030-3907

ushlab turishda eyilish oqibatlarini baholash, uning oldini olishda yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, majmuiy yondoshish zarur ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Қ.Қ. Кўпфункцияли пластик мойларни қўллаш асосида думалаш подшипникларининг ейилиш бардошлигини ошириш. Дис. …техн.фан.ном. Тошкент, 2012. -174 б.

2. Ракин Я.Ф. Эксплуатация подшипниковых узлов машин. -2-е изд., перераб. и доп. –М.: Росагропроммиздат, 1990. -191 с.: ил.

3. Икрамов У.А. Расчетные методы оценки абразивного износа. М.: Машиностроение, 1987. -288 с.

4. Икромов Ў. Трибоника. (Ишқаланиш ва ейилиш). Т.: Ўзбекистон. 2002. -336 б.

ISSN 3030-3907

БОЗОРДА МАҲСУЛОТЛАРНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА САНОАТ СОҲАЛАРИ МЕТРОЛОГИК ТАЪМИНОТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Тимур Юсупов

Ўзбекистон Миллий метрология институти бўлим бошлиғи, Бухоро давлат Техника университети мусатқил тадқиқотчиси

Тел.: +998 97 711 70 12,

E-mail: timur19850526@gmail.com

Аннотация. Глобаллашув ва технологиялар ривожи даврида маҳсулотлар сифати ва уларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш стратегик аҳамиятга эга. Мақолада саноат метрологиясининг муҳимлиги, унинг аниқлик ва ишончлилик аҳамияти, ҳамда халқаро стандартларга мосликка эришиш учун зарур бўлган амалиётлар ва методологиялар таҳлил қилинган. Ўзбекистонда метрология соҳасидаги ислоҳотлар, муаммолар ва уларни бартараф этиш йўналишлари кўриб чиқилган. Замонавий ўлчаш ускуналарининг етишмаслиги, халқаро аккредитация, кадрлар тайёрлаш ва норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш кераклиги таъкидланган. Мақола саноатнинг ҳар бир тармоғи учун аниқ метрологик стандартларни ишлаб чиқиш ва инновацион технологияларни жорий қилиш орқали рақобатбардошликни оширишга чақирув бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар: глобаллашув, технологиялар, саноат метрологияси, халқаро стандартлар, Ўзбекистон, рақобатбардошлик, сифат, экспорт.

Аннотация. В эпоху глобализации и быстрого развития технологий обеспечение качества продукции и повышение ее конкурентоспособности является стратегически важным вопросом для каждой страны. В статье анализируется роль метрологии в обеспечении точности и надежности измерений, а также необходимость соблюдения международных стандартов. Рассматриваются реформы в области метрологии в Узбекистане, проблемы и пути их решения. Подчеркнуты важность современных измерительных приборов, международной аккредитации, подготовки кадров и совершенствования нормативно-правовой базы. Приведены предложения по разработке метрологических стандартов для различных отраслей и внедрению инновационных технологий для повышения конкурентоспособности.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: глобализация, технологии, промышленная метрология, международные стандарты, Узбекистан, конкурентоспособность, качество, экспорт.

Annotation. In the era of globalization and rapid technological advancement, ensuring product quality and increasing competitiveness is of strategic importance for every country. The article analyzes the role of metrology in ensuring accuracy and reliability of measurements, as well as the need for compliance with international standards. Reforms in the field of metrology in Uzbekistan, existing problems, and their solutions are discussed. The importance of modern measuring equipment, international accreditation, personnel training, and the improvement of the regulatory framework are highlighted. Proposals for developing metrological standards for various industries and implementing innovative technologies to increase competitiveness are presented.

Keywords: globalization, technology, industrial metrology, international standards, Uzbekistan, competitiveness, quality, export.

Кириш

Глобаллашув ва технологиялар жадал ривожланаётган даврда маҳсулотлар сифатини таъминлаш ва уларнинг рақобатбардошлигини ошириш масаласи ҳар бир мамлакат учун стратегик аҳамиятга эга. Маҳсулотнинг бозорда ўз ўрнига эга бўлиши, истеъмолчи ишончини қозониши ва экспорт салоҳиятини ошириш учун унинг аниқ техник тавсифлари, стандартларга мослиги ва сифат кўрсаткичлари муҳим ўрин тутади. Бу эса ўз навбатида, ишончли ва замонавий метрологик таъминот тизими мавжудлигини тақозо этади.

Шу нуқтаи назаридан, техник тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаш ва метрология соҳаларида давлат бошқарувини самарали ташкил этиш, шунингдек рақамли технологияларни жорий этиш орқали ушбу соҳани шаффоф ва самарали, коррупциядан холи тизимга айлантириш мақсадида Техник тартибга солиш агентлиги ташкил этилди.

Агентликнинг асосий вазифалари қуйидагиларни ўз ичига олади: халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар билан миллий мувофиқликни баҳолаш, синов ва ўлчаш натижаларини экспорт бозорларида тан олиш бўйича ҳамкорликни кенгайтириш; маҳаллий маҳсулотларни ишлаб чиқаришда халқаро стандартлар ва техник регламентларни жорий этиш орқали уларнинг замонавий талабларга мувофиқлигини таъминлаш ва ташқи бозорларда рақобатбардошлигини ошириш; сифатни бошқаришнинг замонавий тизимларини, айниқса экспорт қилувчи корхоналарда жорий этиш ва маҳсулотларни техник регламентлар ва стандартлаштиришга оид

ISSN 3030-3907

норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини таъминлаш; миллий қонунчиликни, техник тартибга солиш, мувофиқликни баҳолаш ва стандартлаштириш соҳасидаги норматив ҳужжатларни Жаҳон савдо ташкилоти талабларига мослаштириш; маҳсулотлар (ишлар, хизматлар) сифати ва хавфсизлик талабларига риоя этилишини таъминлаш ҳамда истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун чоралар кўриш; норматив ҳужжатларнинг мажбурий талабларини, ўлчашларнинг ягона бирлигини ва тўғрилигини таъминлаш, мажбурий сертификатлаштириш қоидаларини амалга ошириш юзасидан давлат назоратини ташкил этиш ва уни мувофиқлаштириш; техник тартибга солиш соҳасидаги қонунчилик ҳужжатлари бузилишининг олдини олиш ва профилактикасини таъминлаш учун чоралар кўриш; техник тартибга солиш соҳасини рақамлаштириш орқали самарадорлик ва натижадорликка эришиш, тадбиркорларга давлат хизматлари кўрсатишни кенгайтириш, шаффоф ва коррупциядан холи тизимни жорий этиш; техник тартибга солиш соҳасида кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил этиш.

Бу вазифалар орқали агентлик миллий бозорни ҳимоя қилиш, экспорт географиясини кенгайтириш, ҳамда халқаро стандартларга мослашиш жараёнини фаоллаштиради ва буларнинг таркибида метрологик хизматнинг ўрни муҳим.

Ўзбекистонда саноат соҳаларининг рақобатбардошлигини таъминлашда метрологиянинг роли тобора ошиб бормоқда. Айниқса, экспортбоп маҳсулот ишлаб чиқаришда, жаҳон стандартларига мос аниқ ўлчаш ва назорат механизмларини йўлга қўйиш зарурлиги кун тартибида турибди. Шунинг учун ҳам саноат метрологиясини ривожлантириш, унинг ҳуқуқий ва институционал базасини такомиллаштириш, замонавий лабораториялар ва ўлчаш технологияларини жорий этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади.

Метрология — бу фақат ўлчашлар тўғрилиги эмас, балки бутун саноат тизимининг ишончли ишлаши учун пойдевор ҳисобланади. Электротехника, машинасозлик, кимё, фармацевтика, озиқ-овқат саноати каби соҳаларда метрологик таъминот ишлаб чиқариш жараёнидаги ҳар бир босқични сифат билан таъминлайди. Бу эса технологик жараёнлар самарадорлигини ошириб, ноқонуний фарқларни камайтиради.

Ҳар қандай саноат соҳасида ишлаб чиқариш жараёнининг барқарорлиги, маҳсулот сифатининг кафолатланиши ва технологияларнинг самарали фаолияти учун метрология – яъни аниқ ва ишончли ўлчашлар тизими зарур ҳисобланади. Метрология фақат ўлчаш бирликларини таъминлаш билан

ISSN 3030-3907

чекланмайди, балки у бутун техник циклни назорат қилиш, стандартлаштириш, сифатни баҳолаш ва маҳсулотларни халқаро бозорларга чиқариш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Қуйида саноқли саноат тармоқларида метрологиянинг қандай аҳамият касб этиши мисоллар орқали таҳлил қилинади:

- Машинасозлик саноатида: Машинасозлик – юксак аниқлик ва инженерлик ечимларни талаб қилувчи тармоқ. Бу соҳада:

- ҳар бир деталнинг ўлчами, геометрияси ва мустаҳкамлиги аниқ метрологик усуллар орқали назорат қилинади;

- ўлчаш хатолари бутун қурилманинг ишламай қолишига сабаб бўлиши мумкин;

- ISO ва GOST каби халқаро стандартларга мос келадиган ўлчашлар талаб этилади.

- Электроника ва электротехника саноати соҳасида микроўлчашлар ва юқори аниқликдаги синовлар асосий ўрин тутади:

- микросхемалар, датчиклар ва юқори технологик қурилмаларда нанометрик даражада ўлчаш аниқлиги зарур;

- электр токи, кучланиш ва ток частотаси каби параметрлар ишончли ўлчаш ускуналари орқали текширилади;

- метрология техник хавфсизликни таъминлашда муҳим ўрин тутади.

Озиқ-овқат саноати тармоғида озиқ-овқат маҳсулотлари сифати истеъмолчилар соғлиғи билан бевосита боғлиқ. Шу сабаб:

- маҳсулот таркибидаги моддалар (қанд, туз, ёғ, калория ва ҳ.к.) аниқ ўлчаниши шарт;

- сақлаш муддати ва гигиена талабларига амал қилиш учун муҳитнинг ҳарорати, намлиги каби кўрсаткичлар назорат қилинади;

- санитария ва гигиена бўйича халқаро стандартлар асосида метрологик синовлар ўтказилади.

Фармацевтика ва тиббиёт саноатида тиббиётда ҳар бир ўлчаш инсон ҳаёти учун аҳамиятга эга:

- дори воситаларининг таркиби, дозаси ва таъсир вақти метрологик аниқликка боғлиқ;

- тиббий асбоб-ускуналар (томограф, анализатор, термометр ва ҳ.к.) метрологик калибровкадан ўтиши шарт;

- дори-дармон ишлаб чиқариш жараёнида лаборатория назорати ва стандартлаштириш метрология орқали амалга оширилади.

Кимё ва нефт-газ саноати соҳасида:

ISSN 3030-3907

- реакцияларнинг иссиқлик, босим ва концентрация параметрлари қатъий ўлчаш тизими орқали назорат қилинади;

- портлаш, заҳарланиш, чиқинди оқимларининг олдини олиш учун ўта аниқ ўлчаш ускуналари талаб этилади;

- метрологик таҳлил натижалари технологик жараённинг самарадорлигини белгилайди.

Юқоридаги саноат тармоқларидаги мисоллардан кўриниб турибдики, метрология – бу фақат техник фаолиятнинг бир қисми эмас, балки бутун ишлаб чиқариш жараёнининг асосий элементи ҳисобланади. Унинг аниқлиги ва ишончлилиги саноат соҳаларида маҳсулот сифати, хавфсизлик, экспорт салоҳияти ва бозордаги рақобатбардошлик даражасини белгилайди. Шу боис, метрологияни ривожлантириш ҳар бир саноат соҳасининг стратегик устувор вазифаларидан бири бўлиб қолади.

Маҳсулотнинг ишончли ўлчаш параметрлари унинг сифат белгиларини белгилайди. Ўлчашлардаги хатоликлар маҳсулотни стандартлардан четлатади, бу эса экспорт ва ички бозорда ишончсизликка олиб келади. Шу сабабли, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришда ишончли ва сертификатланган ўлчаш ускуналари, халқаро тан олинган синов лабораториялари фаолияти муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кунда дунё бозорида рақобат кучайган шароитда маҳсулот сифатини таъминлаш ва истеъмолчилар ишончини қозонишнинг асосий шарти — бу аниқ, ишончли ва стандартларга мос ўлчаш тизимини йўлга қўйиш ҳисобланади. Ўлчашлар — бу ишлаб чиқариш жараёнида нафақат технологик параметрларни белгилаш, балки маҳсулот сифатини назорат қилиш, сертификатлаш ва уни бозордаги талабларга мослаштириш воситасидир.

Ҳар қандай маҳсулотнинг истеъмолчига етиб боришидан олдин у ҳақидаги биринчи тасаввур — бу унинг техник тавсифлари, яъни ўлчашга оид маълумотлар асосида шаклланади. Масалан, бир машина қисмининг диаметридан тортиб, электроник қурилманинг кучланиш диапазонигача барча маълумотлар метрологик ўлчашлар орқали берилади. Агар ушбу ўлчашлар нотўғри бўлса, маҳсулот стандартга жавоб бермаслиги, ёки ҳатто хавфли бўлиши мумкин. Аниқ ўлчаш эса бу сифат кафолати, сифат эса рақобатбардошликнинг асосидир.

Маҳсулотни экспорт қилиш учун у халқаро стандартларга жавоб бериши керак. Бу эса маҳсулотнинг барча ўлчаш кўрсаткичлари халқаро сертификатлаштириш органлари томонидан тан олиниши кераклигини билдиради. ISO, ASTM, EN каби стандартларга мос келмайдиган

ISSN 3030-3907

маҳсулотлар халқаро бозорга чиқиши қийин бўлади. Албатта, ўлчашларнинг халқаро тан олинган методикалар асосида амалга оширилиши маҳсулотнинг экспортбоплигини таъминлайди.

Ишлаб чиқаришда ҳар бир жараён – хомашёни тайёрлаш, қайта ишлаш, йиғиш, синаш – доимий назоратни талаб қилади. Агар ўлчаш аниқлиги паст бўлса, хомашёда камчиликлар аниқланмаслиги мумкин, тайёр маҳсулотда носозликлар пайдо бўлади, қайта ишлаш ёки бракка чиқариш харажатлари ортиб боради. Натижа эса, ишончли ўлчаш — самарали ишлаб чиқариш ва харажатларни камайтириш воситасидир.

Замонавий истеъмолчи сифатли ва хавфсиз маҳсулотни танлайди. Агар маҳсулот параметрлари ишончли равишда ўлчанган ва бу маълумотлар сертификатлар билан тасдиқланган бўлса, истеъмолчида ишонч пайдо бўлади, бренд нуфузи ортиб, такрорий харидлар сони кўпаяди, шикоятлар камайиб, бозорда фаол рақобатга киришиш осонлашади.

Бугунги саноат инновацион йўналишларга, жумладан, Саноат 4.0, рақамли фабрикалар, автоматлаштирилган жараёнлар каби трендларга йўналмоқда. Бу эса барча ўлчашларни реал вақтда, юқори аниқликда олишни талаб қилади. Масофадан туриб мониторинг қилиш, сунъий интеллект орқали таҳлил қилиш имкониятларини яратади. Натижа эса аниқ - янги технологиялар учун ҳам аниқ ўлчашлар — рақамли саноат инфратузилмасининг ажралмас қисмидир.

Рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш учун фақатгина яхши хомашё ёки илғор технология етарли эмас. Уларнинг самарасини намоён этиш учун ишончли ва аниқ ўлчаш тизими зарур. Ушбу тизим маҳсулот сифатини таъминлайди, халқаро стандартларга мосликни кафолатлайди, истеъмолчи ишончини орттиради, экспорт имкониятларини кенгайтиради.

Шу боис, Ўзбекистон саноатида рақобатбардошликни ошириш учун метрологияни ривожлантириш нафақат техник, балки стратегик масала сифатида қаралиши керак.

Таъкидлаш лозим, сўнгги йилларда Ўзбекистонда метрология соҳасида қатор ислоҳотлар амалга оширилган бўлса-да, амалиётда бир қатор муаммолар мавжуд:

- корхоналарда етарлича замонавий ўлчаш ускуналари мавжуд эмас;
- лабораториялар халқаро аккредитациядан ўтмаган ҳолатда ишламоқда;
- метрология соҳасида кадрлар етишмаслиги ва малака ошириш тизимининг тўлиқ шаклланмаганлиги;
- иқтисодий жиҳатдан самарали интеграция механизмлари йўқлиги.

ISSN 3030-3907

Метрология соҳаси — бу мамлакат иқтисодиёти ва саноатининг барқарор ривожланиши учун асосий инфратузилмалардан бири. Маҳсулот сифати, хавфсизлик, экспорт имкониятлари ва халқаро бозорларда рақобатбардошлик — барчаси ишончли ва аниқ ўлчаш тизимига боғлиқ. Ўзбекистонда сўнгги йилларда метрологияни ривожлантиришга қаратилган қатор ислоҳотлар амалга оширилди. Бироқ амалиётда ҳали ҳам бир қанча муаммолар ва тизимли камчиликлар мавжуд.

Метрологик инфратузилманинг етарли даражада шаклланмаганлиги. Ҳозирда мамлакат бўйлаб фаолият юритаётган метрология марказлари сони чекланган, айниқса, ҳудудий даражада етарли қамров мавжуд эмас. Жойлардаги саноат корхоналари кўпинча марказлаштирилган лабораторияларга боғлиқ бўлиб, бу вақт ва харажат жиҳатидан ноқулайликлар туғдиради.

Замонавий ўлчаш ускуналари ва технологиялар етишмаслиги. Метрология соҳасида қўлланилаётган кўплаб асбоб-ускуналар эскирган ва халқаро стандартларга жавоб бермайди. Бу: ўлчаш аниқлигига таъсир кўрсатади; сертификатлаш жараёнида муаммолар келтириб чиқаради; экспорт маҳсулотларини халқаро тан олишини чеклайди.

Лабораторияларнинг халқаро аккредитация даражаси паст. Аксарият лабораториялар ISO/IEC 17025 каби халқаро стандартларга тўлиқ жавоб бермайди. Бу эса Ўзбекистонда берилган сертификатларнинг кўп давлатларда тан олинмаслигига сабаб бўлади; ишлаб чиқарувчиларни қўшимча синов ва сертификация жараёнларига мажбур қилади.

Малакали кадрлар етишмаслиги: Метрология соҳасида замонавий талабларга жавоб берадиган мутахассислар сони кам; кадрлар қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизими ҳали тўлиқ ишлаб чиқилмаган; ёш кадрларни соҳага жалб қилиш механизми заиф.

Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг етарли эмаслиги. Саноат корхоналари билан метрология муассасалари ўртасидаги ҳамкорлик механизми ҳали тизимли шаклланмаган. Шунингдек, корхоналар ўз ихтиёридаги ўлчаш ускуналарини калибровка қилиш, текшириш ёки модернизация қилиш имкониятига эга эмас; давлат органлари ва хусусий сектор ўртасида аниқ регламентлаштирилган интеграция механизми мавжуд эмас.

Метрологияга оид норматив-ҳуқуқий база камчиликлари: Қонунчиликда метрологияга оид қатор масалалар етарли даражада аниқ белгиланмаган. Хусусан, ўлчаш воситаларини мажбурий текшириш доираси;

ISSN 3030-3907

халқаро стандартларни жорий қилиш жараёни; рақамли метрология ва автоматлаштирилган ўлчаш тизимлари ҳуқуқий мақомининг аниқсизлиги.

Молиявий ресурслар етишмаслиги: Метрология тизимини модернизация қилиш учун давлат томонидан ажратиладиган маблағлар етарли эмас, хусусий инвестициялар жалб этиш механизмлари аниқ шаклланмаган; инновацион лойиҳалар учун грантлар, субсидиялар ва имтиёзлар тизими чекланган.

Ўзбекистонда метрология соҳасини ривожлантириш учун қуйидаги чоралар муҳим аҳамиятга эга:

- Ўзбекистон Миллий метролгия институти ҳудудий филиалларининг фаолиятини такомиллаштириш ва уларни замонавий лабораториялар билан жиҳозлаш;

- Лабораторияларни халқаро аккредитациялаш жараёнини рағбатлантириш;

- кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малака ошириш дастурларини жорий этиш;

- хусусий сектор билан давлат ўртасида интеграция механизмини шакллантириш;

- метрология соҳасидаги норматив базани тубдан такомиллаштириш, айниқса рақамли ва инновацион ўлчаш тизимларини қонуний асосда белгилаш;

- инвестициялар ва грантлар учун имкониятлар яратиш орқали соҳанинг молиявий барқарорлигини таъминлаш.

- вазирликлар ва саноат корхоналари ўртасидаги интеграция моделини ишлаб чиқиш. Бу модел метрологияни стратегик бошқарув қисми сифатида жорий қилишга хизмат қилади.

- аниқ талабларни белгилаш ва уларнинг саноат тармоқларига таъсирини ўрганиш.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мақола мавзуси доирасида олиб борилаётган ишлар, ҳар бир саноат соҳаси учун ўзига хос метрологик талабларни аниқлаш, ўлчаш аниқлигининг ишлаб чиқариш самарадорлигига таъсирини таҳлил қилиш, стандартлаштириш орқали глобал рақобатда иштирок этиш имкониятларини ошириш тадқиқотнинг асосий вазифаларидан ҳисобланади.

Тадқиқот давомида рақамли метрология, интернет орқали масофадан ўлчашларни бошқариш ва сунъий интеллект асосида ўлчашларни автоматлаштириш бўйича таклифлар илгари сурилди. Бу инновациялар ишлаб чиқариш тезлиги ва аниқлигини оширади.

ISSN 3030-3907

Ҳар бир саноат тармоғининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда стандартларни ишлаб чиқилади. Тадқиқотда турли саноат тармоқларининг хусусиятларини инобатга олган ҳолда, улар учун мослашган метрологик стандартлар тизимини ишлаб чиқиш йўналишида илмий таклифлар берилади.

Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги амалий жиҳатлар таъминланади:

- миллий маҳсулотларнинг халқаро стандартларга мос келишини таъминлаш;
- корхоналарда ишлаб чиқаришдаги йўқотишларни камайтириш;
- экспорт имкониятларини кенгайтириш;
- Ўзбекистон саноатидаги рақобат муҳитини кучайтириш.

Хулоса қилиб айтганда, бозор шароитида маҳсулот сифатини таъминлаш ва рақобатбардошликни оширишнинг асосий гарови — бу мукаммал метрологик таъминот тизимидир. Ўзбекистонда саноат соҳаларида бу тизимни ривожлантириш орқали нафақат ички бозорда, балки халқаро майдонда ҳам юқори ўринларга чиқиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1 of self-directedness based upon the key assumptions of andragogy," 2005. [PDF]

[2] J. B. Harris, M. J Hofer, D. A. Schmidt, M. R. Blanchard et al., "“Grounded” Technology Integration: Instructional Planning Using Curriculum-Based Activity Type Taxonomies," 2010. [PDF]

[3] C. Pahl and C. Kenny, "An active learning and training environment for database programming," 2005. [PDF]

[4] N. Gordon and M. Brayshaw, "Flexible virtual environments: Gamifying immersive learning," 2017. [PDF]

[5] E. Francine Barbosa and J. Carlos Maldonado, "An integrated content modeling approach for educational modules," 2012. [PDF]

[6] C. Swertz, "Customized Learning Sequences (CLS) by Metadata.," 2006. [PDF]

[7] H. N. Do, B. Ngoc Do, and M. Hue Nguyen, "3How do constructivism learning environments generate better motivation and learning strategies? The Design Science Approach," 2023. ncbi.nlm.nih.gov

[8] R. J. Haddad and Y. Kalaani, "A Novel Peer-assisted Hybrid Flipped Classroom Model Using Online Discussion," 2015. [PDF]

ISSN 3030-3907

СУЮҚ МАҲСУЛОТЛАР СИФАТ КЎРСАТГИЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ УЧУН ЯНГИ АДАПТИВ ДАТЧИКЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЁТ АСОСЛАРИ

Маъруфжон Джалилов
Ўзбекистон Миллий метрология институти директорининг ўринбосари,
Тел. +998 97 701 90 94

Аннотация:. Мақолада суюқ маҳсулотлар сифат кўрсатгичларини аниқлаш учун янги адаптив датчикларни ишлаб чиқишнинг назарий ва амалиёт асослари кўриб чиқилган. Замонавий суюқ маҳсулотларнинг сифатини ўлчашда юқори аниқлик ва сезгирликка эга адаптив датчикларни ишлаб чиқиш талаблари ва ихтиёрий ҳолатлар таҳлил қилинган. Тадқиқотнинг мақсади, янги авлод адаптив датчикларини яратиш орқали суюқ маҳсулотларнинг сифатини аниқ ва тезкор баҳолаш, шунингдек, саноат ва экологик мониторингдаги муаммоларни ҳал қилишдир. Мақолада суюқ маҳсулотларнинг сифатини ўлчаш ва ҳисоблаш жараёнларига мос технологиялар, стандартлар ва амалиётдаги қўлланиш имкониятлари баён этилган.

Калит сўзлар: Суюқ маҳсулотлар, адаптив датчиклар, сифат кўрсатгичлари, ўлчаш жараёни, метрология, инновацион технологиялар, экологик мониторинг, сифат назорати, сенсор технологиялари.

Аннотация:. В статье рассмотрены теоретические и практические основы разработки новых адаптивных датчиков для определения качественных показателей жидких продуктов. Анализируются требования и условия для разработки датчиков с высокой точностью и чувствительностью для измерения качества жидких продуктов. Цель исследования заключается в создании новых датчиков для точной и быстрой оценки качества жидких продуктов, а также в решении проблем промышленного и экологического мониторинга. В статье представлены технологии, стандарты и возможности применения для измерений качества жидких продуктов.

Ключевые слова: Жидкие продукты, адаптивные датчики, качественные показатели, процесс измерений, метрология, инновационные технологии, экологический мониторинг, контроль качества, сенсорные технологии.

Abstract:. The article discusses the theoretical and practical foundations of developing new adaptive sensors for determining the quality indicators of liquid products. It analyzes the requirements and conditions for developing sensors with high accuracy and sensitivity for measuring the quality of liquid products. The aim of the research is to create new sensors for accurate and rapid assessment of liquid

ISSN 3030-3907

product quality, as well as to address issues in industrial and environmental monitoring. The article presents technologies, standards, and application possibilities for quality measurement of liquid products.

Keywords: Liquid products, adaptive sensors, quality indicators, measurement process, metrology, innovative technologies, environmental monitoring, quality control, sensor technologies.

Кириш

“Атроф-муҳитни асраш ва “яшил” иқтисодиёт йили” Давлат дастурида “яшил” технологияларни жорий этиш, сувни тежаш, кўкаламзор ҳудудларни кескин кўпайтириш, Орол фожиасининг оқибатларини юмшатиш, чиқиндилар муаммосини ҳал қилиш, энг муҳими, аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш каби масалалар устувор аҳамият касб этиши зарурлиги таъкидланди. Ўзбекистон барқарор ўсиш, иқлим шароитига мослашиш ва асосий саноат тармоқларини модернизация қилишга қаратилган иқтисодий ўзгаришларнинг янги босқичига қадам қўймоқда. Кенг кўламли ислоҳотлар энергетика, саноат, аграр сектор ва давлат томонидан тартибга солиш тизимини қамраб олган бўлиб, асосий эътибор яшил иқтисодиётни ривожлантириш, углерод гази изини камайтириш ва жаҳон миқёсида мамлакат рақобатбардошлигини оширишга қаратилган.

Ушбу мақсадлардаги замонавий саноатнинг муҳим йўналишларидан бири суюқ маҳсулотларнинг сифат кўрсатгичларини аниқлаш ҳисобланади. Озиқ-овқат, кимё, фармацевтика, нефт-кимё ва бошқа соҳаларда маҳсулотларнинг сифатини ва мослигини таъминлаш кўп жиҳатдан уларнинг физик-кимёвий хусусиятларини аниқлашга боғлиқ. Шу билан бирга, суюқликларнинг кичик сиғимлардаги ўлчашларида юқори сезгирлик, аниқлик ва барқарорликни таъминлайдиган ускуналарга бўлган эҳтиёж ортиб бормоқда. Бугунги кунда, энергетика, химия, озиқ-овқат саноати ва бошқа соҳаларда суюқ маҳсулотларнинг сифатини ўлчаш муаммоси глобал даражада долзарб бўлиб, инновацион технологияларни, масалан, адаптив датчикларни жорий этиш талаб қилинмоқда. Бу технологик янгиликлар сифат назоратида янги имкониятлар яратди ва саноатда самарадорликни оширишга хизмат қилади. Шундай қилиб, мавзу жаҳон илмий ҳамжамияти ва амалиёт учун муҳим ва истиқболли тадқиқот йўналиши ҳисобланади.

Ҳозирги кунда мавжуд бўлган ўлчаш датчиклари кўплаб вазифаларни бажара олишига қарамай, уларнинг қимматлиги, катта ҳажмлилиги ёки сигналларни қайта ишлашдаги ноаниқликлар каби камчиликлари сақланиб қолмоқда. Бундай шароитларда янги авлод адаптив датчикларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш зарурати юзага келмоқда. Шунингдек,

ISSN 3030-3907

рақамлаштириш жараёнининг жадал ривожланиши ва интеллектуал ўлчаш тизимларига бўлган эҳтиёж инновацион датчикларни ишлаб чиқиш учун янги имкониятларни очмоқда. Янги адаптив датчикларнинг ишлаб чиқилиши нафақат маҳсулотларнинг сифатини юқори аниқликда баҳолашни таъминлайди, балки ишлаб чиқариш жараёнларининг самарадорлигини ошириш, энергия сарфини камайтириш ва тезкор мониторингни йўлга қўйиш имконини ҳам беради.

Шу нуқтаи назардан, мазкур мавзу нафақат илмий жиҳатдан долзарб, балки амалиёт учун ҳам жуда муҳим аҳамиятга эгадир. Ушбу тадқиқот замонавий илмий-амалий талабларга жавоб беради ва янги технологияларни жорий этиш орқали соҳадаги мавжуд муаммоларга ечим топиш имконини яратади.

Суюқ маҳсулотлар сифат кўрсатгичларини аниқлаш, кичик сиғимларни ўлчаш бўйича датчикларни яратиш ва уларнинг долзарблиги юзасидан Ўзбекистон Республикасининг "Метрология тўғрисида"ги Қонуни (26.12.2022 йилдаги таҳрирда Ушбу қонунда ўлчашларнинг ягона тизимини таъминлаш, ўлчов воситаларининг аниқлиги ва ишончлилигини таъминлашга оид асосий қоидалар белгиланган. Суюқликларни ўлчаш учун юқори аниқликдаги датчиклар бу қонунга тўғри келади. “Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида”ги Қонун эса товар ва маҳсулотларнинг стандартлаштириш ва техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида юқори сифат кўрсатгичларини таъминлашга қаратилган талабларни белгилайди. “Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонун эса суюқ маҳсулотларнинг экологик тозалиги ва сифатини текшириш бўйича талабларни қамраб олади. “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичлари халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 майдаги ПФ-5995-сон Фармони эса маҳсулотларни сифатли текшириш тизимини такомиллаштириш ва юқори технологияларни жорий этишни назарда тутади. Президентимиизнинг 2017 йил 28 апрелдаги “Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2935-сонли қарорида “замонавий ўлчаш воситаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш масалалари” белгилаб берилган. O’z DSt 8.001:2021 – Ўлчаш воситалари. Метрологик талабларда стандарт ўлчаш воситаларини лойиҳалаштириш ва уларнинг метрологик характеристикаларини белгилашга қаратилган. Халқаро стандарт ISO 5725 – Аниқлик (туғрилик ва такрорланувчанлик) бўйича халқаро стандартда эса

ISSN 3030-3907

сифат кўрсатгичларни аниқлашда ишончлиликни таъминлаш учун халқаро талабларни белгилайди. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган стратегиясида илмий тадқиқот ва инновацион ишланмаларни рағбатлантириш ва метрология воситалари, хусусан, янги датчиклар лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган. Ўзбекистон Республикасида 2023-2030 йилларда рақамлаштириш стратегияси эса стратегия янги рақамли технологияларни, шу жумладан интеллектуал датчиклар ва автоматлаштирилган ўлчаш тизимларини жорий этишни ўз ичига олади.

Бу ҳужжатлар суюқ маҳсулотларни ўлчаш ва уларнинг сифатини баҳолашда янги датчикларнинг ишлаб чиқилиши ва жорий этилиши учун мустаҳкам ҳуқуқий асос яратади

Тадқиқотнинг мақсади **с**уюқ маҳсулотлар сифат кўрсатгичларини аниқлаш учун янги инновацион адаптив датчик конструкциясини ишлаб чиқиш, унинг назарий асосларини такомиллаштириш ва амалиётда қўлланилишини таъминлашдан иборат. Шунингдек, ишончли, юқори аниқликдаги ва тезкор ўлчаш имконини берадиган датчикни яратиш орқали суюқ маҳсулотларни назорат қилиш ва таҳлил жараёнларини янада самарали қилишга қаратилган.

Суюқ маҳсулотларнинг сифат кўрсатгичларини аниқлаш жараёнлари, бунда қўлланиладиган ўта кичик сиғимларни ўлчаш имкониятига эга адаптив датчикларнинг иш принциплари, конструкцияси ва қўлланилиш соҳалари тадқиқот объекти ҳисобланади. Тадқиқот объектига қуйидагилар киради: суюқ маҳсулотлар турлари: озиқ-овқат маҳсулотлари (сув, ширинликлар, шарбатлар ва бошқа ичимликлар); кимёвий маҳсулотлар (эритмалар, кислоталар, ёғлар ва бошқалар); фармацевтика тармоғидаги маҳсулотлар (дорилар ва тиббий эритмалар); адаптив датчикларнинг конструктив қисмлари (сенсор элементлар, электрон схемалар, ўлчаш модули ва интерфейслар), уларнинг ишлаш параметрлари (аниқлик, сезгирлик, тезкорлик); ўлчаш жараёнлари: суюқ маҳсулотларнинг физик-кимёвий хоссалари (сиғим, қувват, зичлик ва бошқа кўрсатгичлар)ни ўлчаш механизми; датчикнинг ишлаш жараёнидаги турли омиллар таъсирини ўрганиш; адаптив датчиклар саноатда суюқ маҳсулотлар сифатини назорат қилиш жараёнлари, экологик мониторинг ва озиқ-овқат хавфсизлиги соҳалари, илмий-тадқиқот ва тажриба жараёнларида қўлланилади.

Бу тадқиқот объекти янги адаптив датчик ишланмасини яратиш учун асосий жиҳатларни қамраб олади ва унинг функционал имкониятларини кенгайтиришга қаратилган

ISSN 3030-3907

Тадқиқотнинг назарий аҳамияти сифатида қуйидагиларни башорат қилиш мумкин:

- суюқ маҳсулотларнинг сифат кўрсатгичларини ўлчаш жараёнлари бўйича назарий асосларни такомиллаштириш;
- ўта кичик сиғимларни ўлчаш учун адаптив датчикнинг ишлаш принципларини математик моделлаштириш;
- суюқ маҳсулотлар хоссалари ва уларни аниқлашга таъсир этувчи омилларни ўрганиш, бу орқали сенсор технологиялари соҳасида янги илмий натижаларни олиш;
- датчикнинг инновацион конструкциясини яратиш учун техник параметрларни ҳисоблаш ва оптик-электрон схемаларни таҳлил қилиш;
- мавжуд назарий асосларни илмий тадқиқотларда қўллаш учун янги методикалар ва алгоритмлар ишлаб чиқиш.

Дастлабки таҳлил натижалари тадқиқотнинг амалий аҳамияти сифатида қуйидагиларни илгари сўрмоқда:

- янги авлод адаптив датчикларини ишлаб чиқиш ва саноатда қўллаш имкониятини таъминлаш;
- суюқ маҳсулотларнинг сифатини тезкор ва юқори аниқликда баҳолашга қаратилган технологияларни жорий этиш;
- озиқ-овқат, фармацевтика, кимё ва экологик назорат соҳаларида сифатни аниқлаш тизимини яхшилаш;
- сифат назорати ва маҳсулот хавфсизлиги соҳасида ишончли ўлчаш воситаларини тақдим этиш;
- экспериментал тадқиқотлар натижасида эришилган илмий ва технологик ютуқларни ишлаб чиқариш жараёнларига татбиқ этиш;
- янги датчик ишланмасига патент олиш ва унинг тадқиқот натижаларини халқаро стандартлар талабларига мослаштириш;
- суюқ маҳсулотларни сифатли текшириш жараёнларида маҳаллий саноат маҳсулотларининг рақобатбардошлигини ошириш.

Бу тадқиқот ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади, чунки у янги технологияларни ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга татбиқ қилиш орқали турли соҳаларда самарадорликни оширишга қаратилган.

Олиб борилган илмий изланишлар натижасида қуйидаги илмий янгиликларга эришиш кутилмоқда:

- ўта кичик сиғимларни ўлчаш учун инновацион адаптив датчикнинг янги конструкцияси ишлаб чиқилади. Бу конструкция анъанавий усуллардан фарқли тарзда юқори аниқлик ва тезкорлик билан ўлчаш имконини беради;

ISSN 3030-3907

- суюқ маҳсулотларнинг сифат кўрсатгичларини аниқлашда ўта кичик сиғимларни ўлчаш жараёни учун янги математик моделлар яратилди. Бу моделлар датчикнинг ишлаш принципларини прогноз қилиш ва унинг самарадорлигини баҳолашга ёрдам беради;

- суюқ маҳсулотларнинг физик ва кимёвий хусусиятларини ўлчашда юқори сезгирликка эга бўлган сенсор элементлари ишлаб чиқилди. Бу сенсор элементлари ихчамлиги ва самарадорлиги билан ажралиб туради;

- адаптив датчикнинг ишлаб чиқилган конструкцияси асосида амалий тадқиқотлар ўтказилади ва улардан олинган натижалар ишланманинг назарий ва амалий асосларини тасдиқлайди;

- датчикнинг янги ишланмаси халқаро стандартлар талабларига мос тарзда ишлаб чиқилади ва уни патентлаш учун тайёр ҳолга келтирилди;

- суюқ маҳсулотларни сифатини текширишда мавжуд технологиялардан самарадорлиги юқори бўлган янги технологияларни ишлаб чиқиш орқали амалиётга татбиқ этиш усуллари таклиф этилади;

- озиқ-овқат, фармацевтика, кимё ва экологик назорат соҳаларида янги адаптив датчикдан фойдаланиш имкониятлари илмий жиҳатдан асослаб берилади.

Бу тадқиқот натижалари ўлчаш воситалари соҳасида янги технологик ечимларни таклиф қилиш орқали илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини таъминлайди.

Таҳлиллап адқиқотнинг ўрганилганлик даражаси (республикада ва хорижда) ҳақида қуйидаги фикрларни бериш мумкин:

Соҳага тегишли илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики, суюқ маҳсулотлар сифат кўрсатгичларини аниқлаш ва уларни метрологик таъминлаш соҳаси бўйича бўйича чет эл олимлари билан бир қаторда республикамизда ҳам бир қанча олимлар томонидан тадқиқот ишлари олиб борилган. Дастлабки таҳлиллар қуйидаги йўналишларда ишлар олиб борилганлигини кўрсатди:

- сенсор технологиялари: Ўзбекистон Миллий метрология институтида юқори аниқликда ўлчаш воситаларини ишлаб чиқиш бўйича тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Бу тадқиқотлар асосан кимёвий ва физик кўрсатгичларни ўлчашда юқори сезгирликни таъминлашга қаратилган;

- озиқ-овқат маҳсулотлари сифати: Озиқ-овқат саноатида сифат назорати учун замонавий ускуналар ва усуллар ривожлантирилган, аммо улар кўпроқ импорт қилинган технологияларга асосланади.

- тадқиқот институтлари: Тошкент кимё-технология институти ва бошқа илмий-тадқиқот муассасаларида сенсор ва датчикларнинг алоҳида

ISSN 3030-3907

элементларини яратиш бўйича ишлар олиб борилган. Бироқ, уларнинг адаптив хусусиятлари бўйича тўлиқ ишланмалар йўқ.

Дунёда суюқ маҳсулотларнинг сифат кўрсатгичларини аниқлаш бўйича тадқиқотлар бир қатор йирик илмий марказларда олиб борилмоқда:

- Сенсор ва датчиклар ривожи: АҚШ, Германия, Япония ва Жанубий Корея каби илғор давлатларда юқори сезгирликка эга адаптив сенсорлар ишлаб чиқилган. Улар асосан озиқ-овқат маҳсулотларининг кимёвий таркибини аниқлаш ва экологик назорат учун қўлланилади;

- нано-датчиклар: Европада, айниқса, Германияда нано-технологиялар асосида суюқ маҳсулотларни ўлчашга мос датчиклар ривожлантирилмоқда. Улар кичик ҳажмдаги ўзгаришларни аниқлаш учун мўлжалланган;

- метрология ва стандартлар: ISO ва IEC халқаро стандартлари доирасида суюқ маҳсулотларни ўлчаш усуллари ҳамда ўлчаш воситалари учун талаблар ишлаб чиқилган;

- Япония тажрибаси: Япония тадқиқотчилари суюқ маҳсулотлар таркибини лазер ва ультрасадо асосида ўлчашда катта ютуқларга эришган.

Тадқиқотнинг ўрганилганлик даражаси бўйича таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, Республика даражасидаги камчиликлар сифатида аниқлаш воситалари кўпроқ импорт ускуналарига асосланганлигини, мавжуд технологиялар юқори аниқлик ва сезгирликни таъминлай олмаслигини, тадқиқотлар кўпроқ амалиётга мослашмаган ва назарий жиҳатдан тўлиқ асосланмаганлигини келтириш мумкин. Хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари сифатида эса халқаро стандартларга мувофиқ янги конструкцияларни яратиш, адаптив датчиклар ишлаб чиқишда Европанинг нано-технологиялар соҳасидаги илғор тажрибасини жорий этиш, лазерли ўлчаш технологияларини маҳаллий шароитларга мослаштиришни қайд этиш мумкин.

Суюқ маҳсулотларни ўлчаш бўйича хорижий тадқиқотлар республика учун муҳим ўрнак бўлиб, маҳаллий сенсор технологияларини ривожлантиришда катта имкониятлар яратади. Шунингдек, маҳаллий тадқиқотларда халқаро тажрибани мослаштириш орқали илғор ишланмаларни ишлаб чиқиш талаб этилади.

Тадқиқотнинг амалий натижалари сифатида қуйидагиларни қайд этиш мумкин бўлади:

- янги конструкциядаги адаптив датчик яратилади: **с**уюқ маҳсулотларнинг сифати ва физик-кимёвий кўрсаткичларини аниқлашга мўлжалланган инновацион адаптив датчик ишлаб чиқилади, датчикнинг дизайни ва техник хусусиятлари маҳаллий талабларга мувофиқ

ISSN 3030-3907

стандартлаштирилади, янги ишланмага патент олиш орқали интеллектуал мулк муҳофазаси таъминланади.

- экспериментал тадқиқотлар ўтказилади: суюқ маҳсулотларни турли шароитларда ўлчаш бўйича кенг кўламли тажрибалар ўтказилади; датчикнинг ишончлилиги, аниқлиги ва тезкорлиги амалда тасдиқланади; олинган экспериментал натижалар асосида датчикнинг функционал имкониятлари ҳақида хулосалар чиқарилади.

- маҳаллий ишлаб чиқаришга жорий этиладиган технология: саноат, озиқ-овқат, фармацевтика ва нефть-кимё соҳаларида қўллаш мумкин бўлган янги технология жорий этилади, кам ҳажмли ва юқори аниқликда ўлчашни талаб қиладиган жараёнларда технологиядан самарали фойдаланиш имконияти яратилади.

- метрология соҳасидаги амалиётлар учун фойда: метрологик қиёслаш ва калибрлаш жараёнларида янги датчикдан фойдаланиш имконияти яратилади, ҳозирги кунда импорт қилинаётган аналогларнинг ўрнини босиш учун миллий ишланма таклиф этилади, датчикнинг халқаро стандартларга мос келиши учун зарур текширувлар ва сертификатлаштириш ишлари амалга оширилади.

- таълим ва илмий тадқиқот соҳасидаги қўлланиш: олий таълим муассасаларида суюқ маҳсулотларни тадқиқ қилиш бўйича янги лаборатория мосламалари ишлаб чиқилади, талабалар ва тадқиқотчилар учун махсус ўқув-услубий қўлланмалар ва лаборатория дастурлари яратилади.

- иқтисодий ва ижтимоий фойда: янги ишланма асосида маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини назорат қилиш самарадорлиги оширилади; импорт ўрнини босадиган технологияларни ишлаб чиқиш орқали маҳаллий саноат ривожига ҳисса қўшилади; истеъмолчилар учун юқори сифатли маҳсулотлар етказиб бериш орқали жамият фаровонлигига хизмат қилади.

Тадқиқотнинг амалий натижалари маҳаллий саноат ва метрология соҳаларида юқори аниқликдаги инновацион технологияларни қўллаш имконини беради. Бу нафақат иқтисодий, балки ижтимоий ривожланишга ҳам ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.

2. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. The Free Press.

ISSN 3030-3907

3. Hofstede, G. (2001). Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations (2nd ed.). Sage Publications.
4. Mintzberg, H. (2009). Managing. Berrett-Koehler Publishers.
5. Barney, J. B. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120.
6. OECD. (2021). Entrepreneurship and SMEs in Transition Economies: Policy Development in Central Asia. OECD Publishing.
7. World Bank. (2022). Doing Business Report: Comparing Business Regulations in 190 Economies. Retrieved from www.worldbank.org
8. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC). (2023). Economic Integration and Business Development in Central Asia. Retrieved from www.carecprogram.org
9. European Commission. (2023). EU Trade and Economic Relations with Central Asia. Retrieved from www.ec.europa.eu
10. Ghauri, P. N., & Cateora, P. R. (2020). International Marketing (5th ed.). McGraw Hill.

ISSN 3030-3907

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ХИМИЧЕСКОЙ МОДИФИКАЦИИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИРУЮЩИХ МАТЕРИАЛОВ

Нормуродов Бобомурод Розимуратович

Бухарский инженерно-технологический институт ассистент

Аннотация. В статье рассмотрен факторы влияющие в процесс синтеза сложных эфиров из масла куколок тутового шелкопряда на основе бензилового спирта, бензилхлорида и изопропилового спирта, а также представлены механизмы реакции. Отмечено, что использование бензилхлорида в реакциях этерификации, не требуя сложных условий реакции, улучшает функциональных свойств полученного сложного эфира.

В промышленности широко используются твердые и полутвердые жиры, содержащие большое количество насыщенных или трансизомерных жирных кислот, а также низкое количество ненасыщенных жирных кислот [1,2]. Среди них наиболее часто используются натуральные твердые масла или модифицированные промышленные масла [3]. Пальмовое масло, широко используемое в промышленности, является натуральным твердым маслом, и хотя его использование приносит экономические и технологические выгоды, оно не решает проблему насыщенных жирных кислот, если его не модифицировать [4]. Путем промышленной модификации масел можно получать продукты с необходимыми функциональными свойствами, такими как температура плавления, хранение твердого вещества и устойчивость к окислению. Традиционные методы получения модифицированных жиров включают гидрирование, фракционирование и химическую переэтерификацию [5].

Ключевые слова: бензиловый спирт, бензилхлорид изопропил, шелкопряд, пальмовое масло, гидрогенизация, фракционирование

Annotatsiya. Maqolada benzil spirti, benzil xlorid va izopropil spirtiga asoslangan ipak qurti pupa yog'idan esterlarni sintez qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi va reaktsiya mexanizmlari taqdim etiladi. Esterifikatsiya reaktsiyalarida benzilxloriddan foydalanish murakkab reaktsiya sharoitlarini talab qilmasdan, hosil bo'lgan Esterning funktsional xususiyatlarini yaxshilashi qayd etildi. Sanoatda ko'p miqdorda to'yingan yoki transizomerik yog 'kislotalarini o'z ichiga olgan qattiq va yarim qattiq yog'lar, shuningdek, to'yinmagan yog' kislotalarining past miqdori keng qo'llaniladi [1,2]. Ular orasida eng ko'p ishlatiladigan tabiiy qattiq yog'lar yoki o'zgartirilgan sanoat moylari [3]. Sanoatda keng qo'llaniladigan palma yog'i tabiiy qattiq yog'dir va undan foydalanish iqtisodiy va texnologik foyda keltirsa-da, o'zgartirilmasa, to'yingan yog ' kislotalari muammosini hal qilmaydi [4]. Yog'larni sanoat modifikatsiyasi orqali erish

ISSN 3030-3907

nuqtasi, qattiq moddalarni saqlash va oksidlanishga qarshilik kabi zarur funktsional xususiyatlarga ega mahsulotlarni olish mumkin. O'zgartirilgan yog'larni olishning an'anaviy usullari gidrogenlash, fraktsiyalash va kimyoviy transesterifikatsiyani o'z ichiga oladi

Kalit so‘zlar: benzil spirti, benzil xlorid izopropil, ipak qurt, palma yog'i, gidrogenlash, fraktsiyalash

Annotation. The article examines the factors that influence the process of synthesizing esters from silkworm pupa oil based on benzyl alcohol, benzyl chloride and isopropyl alcohol, and presents the reaction mechanisms. It was noted that the use of benzyl chloride in esterification reactions improves the functional properties of the resulting Ester without requiring complex reaction conditions. In industry, solid and semi-solid fats, which contain large amounts of saturated or transisomeric fatty acids, as well as low amounts of unsaturated fatty acids, are widely used [1,2]. Among them, the most used are natural solid oils or modified industrial oils [3]. Palm oil, widely used in industry, is a natural solid oil, and although its use has economic and technological benefits, it does not solve the problem of saturated fatty acids unless modified [4]. Through industrial modification of oils, products with the necessary functional properties such as melting point, solid storage and oxidation resistance can be obtained. Traditional methods of obtaining modified fats include hydrogenation, fractionation, and chemical transesterification

Keywords: benzyl alcohol, benzyl chloride isopropyl, silkworm, palm oil, hydrogenation, fractionation

Введение

Наземные животные жиры отличаются по своему содержанию главным образом из-за высокого содержания глицеридов насыщенных жирных кислот.

Глицериды ненасыщенных жирных кислот в основном содержатся в больших количествах в морских животных, рыбе и растительных маслах, обеспечивая их жидкое состояние. Жиры морских животных и рыб называется “ворван”ами и широко используется в качестве жирующего вещества для кожи и меха. Состав масла из куколки шёлкопряда очень близок к составу “ворван” (таблица 1), и это имеет большое значение, поскольку оно выделено из состава местных промышленных отходов.

Таблица 1.

Сравнительный анализ ненасыщенных жирных кислот куколки шёлкопряда и рыбных жиров

	Ряды и содержание ненасыщенных жирных кислот, %

ISSN 3030-3907

Наименование жира		$C_{16:1}$	$C_{18:1n-9}$	$C_{18:2n-6}$	$C_{18:3n-3}$	$C_{20:4n-6}$	$C_{20:5n-3}$	$C_{22:6n-3}$
1.	Рыбий жир	3.9	14.6	5.0	0.2	7.0	11.0	11.8
2.	Масло из куколки шелкопряда	2.3	18.8	8.3	3.4	6.8	8.7	6.9

В зависимости от ряда жирных кислот свойства жирующих материалов также изменяются.

Недостатком натуральных масел является то, что они склонны к окислению, быстрому накоплению и гидролизу. Это приводит к образованию трещин и складок на поверхности кожи из-за окисления жирующих материалов даже после их введения в кожу, образованию масел и плесени, нарушающих качество готового продукта. Масла жидкой консистенции, а также масла с низкой температурой плавления также плохо хранятся кожей в период эксплуатации, десорбируясь из кожаных изделий под воздействием пыли и влаги.

